

U.U.UMAROVA

**DISKRET MATEMATIKA VA  
MATEMATIK MANTIQ  
FANIDAN MISOL VA  
MASALALAR TO'PLAMI**

*O`quv qo`llanma Oliy ta`lim muassasalarining 5130100-Matematika,  
5130200-Amaliy matematika va informatika ta`lim yo`nalishlari  
talabalari uchun tayyorlangan*

Umida, Umarova

Diskret matematika va matematik mantiq fanidan misol va masalalar to'plami: o'quv qo'llanma\ U. Umarova. 191 b.

### ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanma o'n to'rt paragrafdan iborat bo'lib, ular to'rtta bobda guruhlangan: I. To'plamlar nazariyasi; II. Mulohazalar algebrasi; III. Bul funktsiyalari; IV. Mulohazalar hisobi. Har bir paragrafda misol va masalalarni yechish uchun ishlatalidigan tushunchalar tizimini ta'minlovchi nazariy xususiyatga ega qisqacha ma'lumot berilib, so'ng muammoli masala va topshiriqlar beriladi.

O`quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarining 5130100-Matematika, 5130200-Amaliy matematika va informatika ta'lim yo`nalishlari fan dasturidagi mavzulari asosida tuzilgan. Misol va masalalar to'plami ta'lim muassasalarida diskret matematika va matematik mantiq asoslarini o'rganishni boshlagan har bir kishi uchun foydali bo'ladi.

### АННОТАЦИЯ

Это Учебное пособие сборник задач предназначен для оказания практической поддержки теоретическим курсам по дискретной математике и математической логике. Сборник состоит из четырнадцати параграфов, которые сгруппированы в четыре главы: I. Множество; II. Алгебра высказываний; III. Булевые функции; IV. Формализованное исчисление высказываний. Каждый абзац содержит краткий обзор теоретической части, которые обеспечивают систему понятий, используемых для решения примеров и задач, за которыми следуют задачи для решения.

Учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата направления 5130100-Математика, 5130200-Прикладная математика и информатика предусмотренная учебная программой.

Сборник задач и упражнений будет полезен всем, кто приступает к изучению основ дискретной математики и математической логики в учебных заведениях.

### ANNOTATION

The collection consists of fourteen sections, which are grouped into four chapters: I. Sets; II. Propositional Algebra; III. Boolean functions IV. Propositional calculus. Each section contains a brief overview of the theoretical part, which provides a system of concepts used to solve examples and problems, followed by tasks to be solved.

The manual is intended for undergraduate students of the disciplines of 5130100-Mathematics, 5130200-Applied mathematics and informatics, and is designed according to the topics given in the curriculum. The collection of problems and exercises will be useful to everyone who begins to study the basics of discrete mathematics and mathematical logic in educational institutions.

### TAQRIZCHILAR:

Buxoro muhandislik texnologiya institute professori, f-m.f.d., **M.X. Teshayev**

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f-m.f.n., **H.R. Rasulov**

## SO‘Z BOSHI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimini tubdan islohot qilishga katta ahamiyat berildi. 1997-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi va unda ta’lim tizimini zamonaviy talablarga mos keltirish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar hamda ularni bosqichma–bosqich amalga oshirish belgilab berildi. Milliy dasturdagi eng asosiy vazifalaridan biri –yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda o‘quv-tarbiya jarayoni uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, uni yuqori sifatli o‘quv-uslubiy majmualar bilan ta’minalash muhim ahamiyatga ega ekanligi dasturda ta’kidlab o‘tilgan.

Yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy talablarga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashda ularga chuqur matematik bilimlar berish va bu bilimlarni masalalar yechishga tatbiq eta olishga o‘rgatish katta ahamiyatga ega.

Misol va masalalar ishlamasdan matematikani o‘rganishni tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘qitish jarayonida misol va masalalar turli funksiyalarni bajaradi - o‘qitish, rivojlantirish, ta’lim berish. Biz misol va masalalar matematikani o‘qitishning eng muhim vositasi deb bilamiz. Ular yordamida matematikani o‘qitishda turli didaktik maqsadlar qo‘yilishi mumkin: nazariy savollarni o‘rganishga tayyorgarlik, olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikmalarini shakllantirish, ilgari o‘rganilgan materialni takrorlash, uni boshqa fanlarda va amaliyotda qo’llash, bilimlarning assimilyatsiyasini kuzatish.

Misol va masalalar yordamida o‘z maqsadlariga erishishga o‘rgatish uchun mashqlar va topshiriqlarning puxta o‘ylangan tizimi kerak. Bunday tizimda vazifalar ketma-ketligi o‘quvchilarining xususiyatlari va qobiliyatları "oddiydan murakkabga" tamoyilini hisobga olgan holda to‘g’ri tashkil etilishi kerak.

Misol va masalalar to‘plami o‘quv qo’llanmasida o‘rganilayotgan diskret matematika va matematik mantiq fani bo‘yicha nazariy mavzularni amaliy

qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan. To'plam o'n to'rt paragrafdan iborat bo'lib, ular to'rtta bobda guruhlangan: I. To'plamlar nazariyasi; II. Mulohazalar algebrasi; III. Bul funksiyalari; IV. Mulohazalar hisobi. Har bir paragrafda misol va masalalarni yechish uchun ishlataladigan tushunchalar tizimini ta'minlovchi nazariy xususiyatga ega qisqacha ma'lumot berilib, so'ng muammoli masala va topshiriqlar beriladi.

O`quv qo'llanma Oliy ta`lim muassasalarining 5130100-Matematika, 5130200-Amaliy matematika va informatika ta`lim yo`nalishlari fan dasturidagi mavzulari asosida tuzilgan.

Misol va masalalar to'plami ta'lim muassasalarida diskret matematika va matematik mantiq asoslarini o'rganishni boshlagan har bir kishi uchun foydali bo'ladi.

## 1-BOB. TO'PLAMLAR NAZARIYASI

### 1.1-To'plamlar va ular ustida amallar.

$A = \{a, b, c, d, \dots\}$  -  $A$  to'plam  $a, b, c, d, \dots$  elementlardan tuzilgan.

$a \in A$  yoki  $A \ni a$  -  $a$  narsa  $A$  to'plamning **elementi**

$b \in A$  yoki  $A \ni b$  -  $b$  narsa  $A$  to'plamning **elementi emas**

$B \subseteq A$  yoki  $A \supseteq B$  -  $B$   $A$  ning **qism to'plami**

$B \subset A$  yoki  $A \supset B$  -  $B$   $A$  ning **xos qism** to'plami.

$\emptyset$  -bo'sh to'plam har qanday  $A$  to'plamning qism to'plami bo'ladi va u ham  $A$  ning **xosmas qismi**

$A \cup B = \{x \mid x \in A \text{ yoki } x \in B\}$  -  $A$  va  $B$  to'plamlarning **yig'indisi yoki birlashmasi**

$\bigcup_{\alpha=1}^n A_\alpha = A_1 \cup A_2 \cup A_3 \cup \dots \cup A_n$  -  $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$  to'plamlarning **yig'indisi yoki birlashmasi**

$A \cap B = A \cap B = \{x \mid x \in A \text{ va } x \in B\}$  -  $A, B$  to'plamlarning **ko'paytmasi (kesishmasi yoki umumiy qismi)**

$\bigcap_{\alpha=1}^n A_\alpha = A_1 \cap A_2 \cap A_3 \cap \dots \cap A_n$  -  $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$  to'plamlarning **ko'paytmasi (kesishmasi yoki umumiy qismi)**

$A - B$  yoki  $A \setminus B$ ,  $A - B = \{x \mid x \in A \text{ va } x \notin B\}$  -  $A$  va  $B$  to'plamlarning

**ayirmasi**

$\overline{B}$  yoki  $B'$  -  $B$  ni  $A$  to'plamigacha **to'ldiruvchisi**

$\cup$  - universal to'plam.

$2^A = \{X \mid X \subseteq A\}$  —  $A$  to'plamning **barcha qism to'plamlaridan tuzilgan to'plam**

$A \Delta B$  yoki  $A \otimes B = (A - B) \cup (B - A)$  -  $A$  va  $B$  to'plamlarning **simmetrik ayirmasi**.

$n(A)$  -  $A$  to'plamning **elementlari soni**

Agar  $A \subseteq B$  va  $B \subseteq A$  bo'lsa, u vaqtda  $A = B$ .

**Misol:**  $A = \{1, 2, 3, 4, 5\}$ ,  $B = \{3, 4, 5, 6, 7\}$   $A \cup B = \{1, 2, 3, 4, 5, 6, 7\}$

### Asosiy tengkuchliliklar.

1.  $\overline{\overline{A}} = A$
2.  $A \cap B = B \cap A$  - ko'paytmaga nisbatan kommutativlik qonuni.
3.  $(A \cap B) \cap C = A \cap (B \cap C)$  - ko'paytmaga nisbatan assostiativlik qonuni.
4.  $A \cup B = B \cup A$  - yig'indiga nisbatan kommutativlik qonuni.
5.  $(A \cup B) \cup C = A \cup (B \cup C)$  - yig'indiga nisbatan assostiativlik qonuni.
6.  $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$  - ko'paytmaga nisbatan distributivlik qonuni.
7.  $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap (A \cup C)$  - yig'indiga nisbatan distributivlik qonuni.
8.  $\overline{A \cap B} = \overline{A} \cup \overline{B}$ . 9.  $\overline{A \cup B} = \overline{A} \cap \overline{B}$ . - de-Morgan qonuni
10.  $A \cap A = A$ . 11.  $A \cup A = A$ .
12.  $A \cap U = A$ . 13.  $A \cup U = U$ .
14.  $\overline{A \cup A} = \overline{A}$ . 15.  $A \cup \emptyset = A$ . 16.  $A \cap \emptyset = \emptyset$ .
17.  $B \cup \overline{B} = U$ . 18.  $\overline{B} \cap B = \emptyset$ . 19.  $B \cup \overline{B} = A$ .
20.  $B - \overline{B} = B$ , 21.  $\overline{B} - B = \overline{B}$ .
22.  $A \cap (A \cup B) = A$  23.  $A \cup (A \cap B) = A$  yutish qonuni

Kesishma amali birlashma amaliga nisbatan mustahkamroq bog'laydi, shuning uchun qavslar qo'yilmagan taqdirda birinchi bajariladi.

**Misol:**  $A \cup (A \cap B) = A \cup A \cap B$ .

$$(A \cap B) \cup C = A \cap B \cup C$$

## Muammoli masala va topshiriqlar:

**1.1.1.** Quyidagilardan qaysi to'g'ri:

- |                               |                                   |   |
|-------------------------------|-----------------------------------|---|
| 1) $b \subset \{a, b\}$ ;     | 5) $b \subset \{a, \{b\}\}$ ;     | 9) $\emptyset \in \{\emptyset\}$ ;        |
| 2) $b \in \{a, b\}$ ;         | 6) $b \in \{a, \{b\}\}$ ;         | 10) $\emptyset \subseteq \{\emptyset\}$ ; |
| 3) $\{b\} \subset \{a, b\}$ ; | 7) $\{b\} \subset \{a, \{b\}\}$ ; | 11) $\emptyset \in \emptyset$ ;           |
| 4) $\{b\} \in \{a, b\}$ ;     | 8) $\{b\} \in \{a, \{b\}\}$ ;     | 12) $\emptyset \subseteq \emptyset$ ?     |

**1.1.2.** Har bir to'plamning elementlar soni nechta:

- |  |   |
|--|---|
| 1) $\{1, 2, 3, \{1, 2, 3\}\}$ ;                    | 4) $\{\emptyset\}$ ;                    |
| 2) $\{1, \{1\}, 2, \{1, \{2, 3\}\}, \emptyset\}$ ; | 5) $\{\emptyset, \{\emptyset\}\}$ ;     |
| 3) $\emptyset$ ;                                   | 6) $\{\{\emptyset, \{\emptyset\}\}\}$ ? |

**1.1.3.** Agar  $A \subseteq B$  va  $a \in A$  bo'lsa, quyidagilardan qaysi to'g'ri:

- |                       |                           |
|-----------------------|---------------------------|
| 1) $a \notin B$ ;     | 6) $a \in A - B$ ;        |
| 2) $a \in B$ ;        | 7) $a \in A \otimes B$ ;  |
| 3) $A \in B$ ;        | 8) $a \subseteq A$ ;      |
| 4) $a \in A \cup B$ ; | 9) $\{a\} \subseteq A$ ;  |
| 5) $a \in A \cap B$ ; | 10) $\{a\} \subseteq B$ ? |

**1.1.4.** Agar  $B \subseteq A \subseteq C$ ,  $a \in A$  va  $a \notin B$  bo'lsa, quyidagilardan qaysi to'g'ri:

- |                                 |   |
|---------------------------------|---|
| 1) $a \notin C$ ;               | 9) $a \in A \cup C$ ;                     |
| 2) $a \in C$ ;                  | 10) $\{a\} \subseteq A - C$ ;             |
| 3) $a \in A \cap B$ ;           | 11) $\{a\} \subseteq A \otimes C$ ;       |
| 4) $a \in A \cup B$ ;           | 12) $a \in (A \cap B) \cup C$ ;           |
| 5) $a \in A - B$ ;              | 13) $\{a\} \subseteq A \cap (B \cup C)$ ; |
| 6) $a \in B - A$ ;              | 14) $\{a\} \subseteq B \cup (C - A)$ ;    |
| 7) $a \in A \otimes B$ ;        | 15) $\{a\} \subseteq A \cap (B - C)$ ;    |
| 8) $\{a\} \subseteq A \cap C$ ; | 16) $\{a\} \subseteq B \otimes (A - C)$ ? |

**1.1.5.** Universal to'plam  $U = \{1,2,3,4,5,6,7,8\}$  va uning qism to'plamlari  $A = \{x \mid 2 < x \leq 6\}$ ,  $B = \{x \mid x - \text{juft}\}$ ,  $C = \{x \mid x \geq 4\}$ ,  $D = \{1,2,4\}$  bo'lsa,  $A \cap B$ ,  $A \cup B$ ,  $CD$ ,  $B \otimes C$ ,  $\overline{A}$ ,  $\overline{BD}$ ,  $\overline{\overline{A} \cup \overline{B} \cup \overline{C}}$ ,  $(A-B) \cup (C-D)$ ,  $2^A \cap 2^B$ ,  $2^D - 2^B$  ni toping.

**1.1.6.** Universal to'plam  $U = \{1,2,3,4,5,6,7,8\}$  va uning qism to'plamlari

$A = \{x \mid x - \text{juft}\}$ ,  $B = \{x \mid x - \text{to'rtga karrali}\}$ ,  $C = \{x \mid x - \text{tub}\}$ ,  $D = \{1,3,5\}$  bo'lsa,  $A \cup B$ ,  $CD$ ,  $A \otimes B$ ,  $A \cap (B \cup C \cup D)$ ,  $C \otimes D$ ,  $(A-B) \cup (C-D)$ ,  $\overline{A}$ ,  $\overline{BD}$ ,  $\overline{\overline{A} \cup \overline{C}}$ ,  $2^A \cap 2^B$  ni toping.

**1.1.7.**  $M_2$ ,  $M_3$ ,  $M_5$  to'plamlar mos ravishda 2,3,5 ga bo'linuvchi sonlardan tuzilgan va universal N natural sonlar to'plamning qism to'plamlari bo'lsin. Shu to'plamlar yordamida quyidagi shartni bajaruvchi barcha sonlar to'plamini tuzing:

- 1) 6 ga bo'linuvchi;
- 2) 30 ga bo'linuvchi;
- 3) 30 bilan o'zaro tub;
- 4) 10 ga bo'linuvchi ammo 3 ga bo'linmaydigan;

To'plamlar nazariyasi simvollaridan foydalanib, quyidagilarni yozing:

1) 45 soni 15 ga bo'linadi;  
 2) 42 soni 6 ga bolinadi ammo 10 ga bo'linmaydi;  
 3)  $\{8, 9, 10\}$  to'plamdagи har bir son 2, 3, 5 sonlarning hech bo'limganda birtasiga bo'linadi ammo 6 ga bo'linmaydi.

**1.1.8.**  $-$ ,  $\otimes$  amallari uchun kommutativlik va assosiativlik xossalari bajarilishini tekshiring.

**1.1.9.** Ixtiyoriy  $A, B, C$  to'plamlar uchun quyidagi distributivlik xossalardan qaysi bajarilishini aniqlang:

- 1)  $A - (B \cup C) = (A - B) \cup (A - C)$ ;
- 2)  $A - (B \cap C) = (A - B) \cap (A - C)$ ;
- 3)  $A \otimes (B \cup C) = (A \otimes B) \cup (A \otimes C)$ ;

- 4)  $A \otimes BC = (A \otimes B)(A \otimes C);$   
 5)  $A - (B \otimes C) = (A - B) \otimes (A - C);$   
 6)  $A \cup BC = (A \cup B)(A \cup C);$   
 7)  $A \cup (B - C) = (A \cup B) - (A \cup C);$   
 8)  $A(B - C) = AB - AC;$   
 9)  $A \cup (B \otimes C) = (A \cup B) \otimes (A \cup C);$   
 10)  $A(B \otimes C) = AB \otimes AC;$   
 11)  $A \otimes (B - C) = (A \otimes B) - (A \otimes C).$   
 12)  $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap (A \cup C);$   
 13)  $A \cap (B \setminus C) = (A \cap B) \setminus (A \cap C);$   
 14)  $A \setminus (B \setminus C) = (A \setminus B) \cup (A \cap C);$   
 15)  $A \Delta (B \Delta C) = (A \Delta B) \Delta C;$   
 16)  $A \cap (B \Delta C) = (A \cap B) \Delta (A \cap C);$   
 17)  $(A \cap B) \cup (C \cap D) = (A \cup C) \cap (B \cup C) \cap (A \cup D) \cap (B \cup D).$

**1.1.10.** Isbotlang:

- |   |  |
|---|--|
| 1) $A \cup AB = A;$   | 7) $A \otimes B = A \cap \bar{B} \cup \bar{A} \cap B$                    |
| 2) $A(A \cup B) = A;$   | 8) $A \otimes (A \otimes B) = B;$  |
| 3) $A \cup \bar{A} \cap B = A \cup B$                                       | 9) $A - B = A \otimes AB;$   |
| 4) $A(\bar{A} \cup B) = AB$   | 10) $A \cup B = (A \otimes B) \cup AB;$                                  |
| 5) $A - (A - B) = AB;$  | 11) $\overline{A \otimes B} = \bar{A} \otimes B = A \otimes B \otimes U$ |
| 6) $A - AB = A - B$   | 12) $\overline{A \otimes B} = AB \cup (\bar{A} \bar{B})$                 |
| 13) $A(B - A) = \emptyset;$   | 15) $A \cup \bar{A}B = A \otimes \bar{A}B = B \otimes A\bar{B}$          |
| 14) $A \cup (B - A) = A \cup B;$  | 16) $AB \cup \bar{A}\bar{B} = A$   |
| 17) $A - (B \cup C) = (A - B)(A - C);$                                      |  |
| 18) $A \otimes \bar{B} = \bar{A} \otimes B = AB \cup (\overline{A \cup B})$ |  |

- 19)  $(A - B) - C = (A - C) - (B - C) = A - (B \cup C);$   
 20)  $A - (B - C) = (A - B) \cup AC = (A - B) \cup (\bar{A} - C);$   
 21)  $(A \cup B) - C = (A - C) \cup (B - C);$   
 22)  $A \cup B \cup C = (A - B) \cup (B - C) \cup (C - A) \cup ABC;$   
 23)  $A - BC = (A - B) \cup (A - C) = ABC \otimes A;$   
 24)  $A(B - C) = AB - C = ABC \otimes AB;$   
 25)  $(AB \otimes A) \otimes (BC \otimes C) = (AB \otimes BC) \otimes (A \otimes C);$   
 26)  $(A \cup B) \otimes (B \cup C) = (A \otimes C) - B = (AB \otimes BC) \otimes (A \otimes C).$

**1.1.11.** Ifodalang:

- 1)  $\cup$  ni  $\otimes$ ,  $\cap$  amallar orqali;
- 2)  $\cap$  ni  $\otimes$ ,  $\cup$  amallar orqali;
- 3)  $\cup$  va  $\cap$  ni  $\otimes$  – amallar orqaliyu

**1.1.12.** Tenglamani yeching:

- |  |  |
|--|--|
| 1) $AX = B;$                           | 16) $A - X = BX - A;$                            |
| 2) $A \cup X = B;$                     | 17) $A \cap \overline{X \cup B} = (X - A)B;$     |
| 3) $A \otimes X = B;$                  | 18) $\overline{A \cup X} = \overline{B \cup X};$ |
| 4) $A - X = B;$                        | 19) $X - A = B \cup (X - A);$                    |
| 5) $A \cup X = BX;$                    | 20) $(A \cup X) - B = B - XA;$                   |
| 6) $A \otimes X = BX;$                 | 21) $XA = B(X \cup A);$                          |
| 7) $A - X = X - B;$                    | 22) $(A \otimes X)X = X - B;$                    |
| 8) $(A \cup X) \cup B = X \cup B;$     | 23) $AX \cup \overline{A} = (X - B)B;$           |
| 9) $\overline{AX} = (X \cup B) - A;$   | 24) $(A \cup X)B = \overline{A} \cup BX;$        |
| 10) $\overline{XA} = (X - B) \cup A;$  | 25) $A \otimes (X \cup B) = BX;$                 |
| 11) $(A \cup X)\overline{B} = X - B;$  | 26) $BX = (A - X)X;$                             |
| 12) $(A - X) \cup B = B \otimes X;$    | 27) $AX \otimes B = X - A;$                      |
| 13) $(X - A) \cup B = \overline{AX};$  | 28) $(X \cup B) - A = A \cup X;$                 |
| 14) $(X \otimes A) - B = BX;$          | 29) $AX \cup B = A - X;$                         |
| 15) $AX \otimes B = B - \overline{X};$ | 30) $X \cup A = (B - X) \otimes A.$              |

**1.1.13.** Agar  $A \subseteq B$  bo'lsa,  $AB = \emptyset$  ekanligini isbotlang.

**1.1.14.** Agar  $A = B$  bo'lsa,  $A \otimes \overline{B} = \emptyset$  ekanligini isbotlang.

**1.1.15.**  $U = \{0,1,2,3,4,5,6,7,8,9\}$ ,  $A = \{1,2,3\}$ ,  $B = \{0,1,2,5,8\}$ ,  $C = \{0,2,5,8\}$ ,

$D = \{3,6,8,9\}$  bo'lsa, quyidagi to'plamlarni toping:

- |  |   |
|--|---|
| 1) $\overline{A \cup B} \cap (C \setminus D)$            | 5) $(A \otimes B) \cup \overline{C \cap D}$ |
| 2) $\overline{A/B} \cap (C \cup D)$                      | 6) $(A \cup B \cup C) \cap D$               |
| 3) $\overline{A \cap B} \cap (C \setminus \overline{D})$ | 7) $(B \cap C) \cup (A \cap D)$             |
| 4) $(A \cup \overline{B \cup C}) \cap D$                 | 8) $\overline{(A \cup B \cup C) \cap D}$    |

**1.1.16.**  $U = \{-1,-2,-3,-4,-5,5,4,3,2,1\}$ ,  $A = \{1,2,3\}$ ,  $B = \{-1,-2,-5,3\}$ ,  $C = \{-3,-4,1,2,3\}$ ,

$D = \{-2,1,4,5\}$  bo'lsa, quyidagi to'plamlarni toping:

- |  |   |
|--|---|
| 1) $\overline{A \cup B} \cap (C \setminus D)$            | 5) $(A \otimes B) \cup \overline{C \cap D}$ |
| 2) $\overline{A/B} \cap (C \cup D)$                      | 6) $(A \cup B \cup C) \cap D$               |
| 3) $\overline{A \cap B} \cap (C \setminus \overline{D})$ | 7) $(B \cap C) \cup (A \cap D)$             |
| 4) $(A \cup \overline{B \cup C}) \cap D$                 | 8) $\overline{(A \cup B \cup C) \cap D}$    |

**1.1.17.** Sistemani soddalashtiring:

$$1) \begin{cases} A \subseteq BC \cup \overline{B}; \\ ABC \subseteq D; \\ AD \subseteq \overline{BC}. \end{cases} \quad 2) \begin{cases} \overline{A} = B\overline{C}; \\ \overline{C} \subseteq D; \\ AD = \overline{B}CD; \\ B = CD. \end{cases} \quad 3) \begin{cases} C \subseteq A \cup B; \\ A \cup D \subseteq B \cup C; \\ \overline{B} \subseteq D \subseteq \overline{C}; \\ BC \subseteq \overline{D}. \end{cases}$$

**1.1.18.** Quyidagi sistemalar tengkuchlimi?

$$1) \begin{cases} X \subseteq Z \subseteq \overline{W}, \\ Y \subseteq W, \\ X \cup Y \subseteq Z \cup W. \end{cases} \quad \text{va} \quad \begin{cases} X = Z \\ Y = W. \end{cases}$$

$$2) \begin{cases} C \otimes D \subseteq A, \\ B \cup D \subseteq A \cup C, \\ A - D \subseteq C - B. \end{cases} \quad \text{va} \quad \begin{cases} \overline{A} \subseteq CD, \\ B - C \subseteq \overline{A}, \\ A \subseteq C \cup D. \end{cases}$$

$$3) \begin{cases} A \subseteq C \otimes B, \\ C \subseteq B \otimes D, \\ AC \subseteq B - D. \end{cases} \quad \text{va} \quad \begin{cases} B \subseteq \overline{CD}, \\ C - D \subseteq B, \\ AC \subseteq D, \\ A - B \subseteq BC. \end{cases}$$

**1.1.19.** Berilgan tenglamalar sistemasidagi  $X$  to'plamni toping. Bu yerda  $A, B, C$  to'plamlar  $B \subseteq A \subseteq C$  shartni qanoatlantiradi.

$$1) \begin{cases} A - X = B \\ A \cup X = C. \end{cases} \quad 2) \begin{cases} AX = B \\ A \cup X = C. \end{cases}$$

**1.1.20.** Tenglamalar sistemasini yeching.

$$1) \begin{cases} (A \cup X)(B \cup X) = C \cup X \\ BX \cup C = \overline{AX}. \end{cases}; \quad 2) \begin{cases} A - X = \overline{B} \\ A \cup X = \overline{C}. \end{cases}$$

$$3) \begin{cases} A \otimes B \otimes X = X \otimes C \\ AX \otimes B = AX \otimes C. \end{cases}; \quad 4) \begin{cases} AX = C \cup X \\ A \cup X = BX. \end{cases}$$

$$5) \begin{cases} AX \cup B\overline{X} = C \\ BX \cup A\overline{X} = C. \end{cases}; \quad 6) \begin{cases} AX = B \\ B\overline{X} = C \\ CX = A \cup B. \end{cases}$$

**1.1.21.** Quyidagilardan qaysi to'g'ri va qaysi noto'g'ri? Javobingizni asoslang:

- |                                |  |
|--------------------------------|--|
| 1) $\pi \in R$                 | 5) $\emptyset \in \{\emptyset\}$ ;               |
| 2) $\cos \frac{\pi}{3} \in Q$  | 6) $a \in \{\{a, b\}\}$ ;                        |
| 3) $0,1010010001... \in Q$ ;   | 7) $\{a, b\} \in \{\{a, b\}\}$ ;                 |
| 4) $\emptyset \in \emptyset$ ; | 8) $\{a, b\} \in \{\{a, b\}; \{a, c\}; a; b\}$ . |

**1.1.22.** Quyidagi to'plamlar tengmi:

- |  |   |
|--|---|
| 1) $\{1, 3, 5\}$ va $\{1, 3, 5, 1\}$ ; | 4) $\{a, b, c\}$ va $\{\{a\}, \{b\}, \{c\}\}$ |
| 2) $\{11, 13\}$ va $\{\{11, 13\}\}$ ;  | 5) $\{\{a, b\}, c\}$ va $\{a, \{b, c\}\}$     |

3)  $\{a, b, c\}$  va  $\{a, b, a, c\}$ ;      6)  $\{x \in R | 22 \leq x \leq 3\}$  va  $\emptyset$ .

**1.1.23.**  $\in$  yoki  $\subseteq$  belgilardan qaysi qo'yilganda to'g'ri tasdiq hosil bo'ladi?

- |  |   |
|--|---|
| 1) $\{1\}$ va $\{1, \{1, 2\}\}$ ;                    | 5) $\emptyset$ va $\{\emptyset\}$ ;     |
| 2) $\{1, 2\}$ va $\{1, 2, \{1\}, \{2\}\}$ ;          | 6) $\emptyset$ va $\{\{\emptyset\}\}$ ; |
| 3) $\{1, 2\}$ va $\{1, 2, \{1, 2\}\}$ ;              | 7) $\{1, 2\}$ va $\{1, 2\}$ .           |
| 4) $\emptyset$ va $\{1, 2, \{1\}, \{\emptyset\}\}$ ; |   |

**1.1.24.** To'plamlarning asosiy xossalardan foydalanib, quyidagilarni soddalashtiring:

- 1)  $(A \cap \overline{B} \cap \overline{C}) \cup (\overline{A} \cap B \cap \overline{C}) \cup B \cup C$ ;
- 2)  $\overline{(A \cup B) \cap (\overline{A} \cup B) \cap (A \cup \overline{B})}$ ;
- 3)  $\overline{A} \cup (\overline{A \cup \overline{B} \cap \overline{C}}) \cup (B \cap (\overline{A \cup C}))$ ;
- 4)  $A \otimes A \otimes A$
- 5)  $(A \cap B \cap C \cap \overline{D}) \cup (\overline{A} \cap C) \cup (\overline{B} \cap C) \cup (C \cap D)$
- 6)  $\overline{(A \cup B \cup \overline{C}) \cap (A \cap \overline{B} \cap C) \cap (\overline{A \cup C})}$

**1.1.25.** Isboblang:

- 1)  $(A \setminus B) \setminus C \subseteq (A \cup C) \setminus B$ ;
- 2)  $A \Delta B = A \setminus B$ , agar  $B \subseteq A$ ;
- 3)  $A \cap B \subseteq C$ , agar  $A \subseteq (B \setminus C)$ ;
- 4)  $A = \overline{B}$ , agar  $A \cap B = \emptyset$  va  $A \cup B = U$ .

**1.1.26.** Sinfda 32 o'quvchi bor. Ulardan 18 nafari kimyo to'garagiga, 12 tasi biologiya to'garagiga, 8 talaba ushbu to'garaklarning hech biriga qatnashmaydi. Qancha talabalar kimyo va biologiya to'garaklarga qatnashadilar? Qancha talabalar faqat kimyo to'garagiga qatnashadilar?

**1.1.27.** Guruhda 30 talaba bor, ulardan 18 nafari suzishga, 17 nafari voleybolga qiziqadi. a) Ikkala sport turiga qiziqqan talabalar soni qancha bo'lishi mumkin?

b) Kamida bitta sport turiga qiziqqan o'quvchilar soni qancha bo'lishi mumkin?

**1.1.28.** Doskadagi tasodifiy yozilgan raqamlar orasida 65% -2, 70% - 3 ga, 75% ga - 5 ga bo'linadi, 30 ga bo'inadigan raqamlarning eng kichik foizi qancha?

**1.1.29.** PMIda o'qiyotgan barcha birinchi kurs talabalari uchta dasturlash tilini o'rganishadi. Bu yil 19 talaba Paskalni, 14 kishi Basicni, 17 kishi Delphini o'rganishga qaror qilishdi. Bundan tashqari, 4 talaba Paskal va Basic dasturlarida uchtasi Paskal va Delphi, uchtasi Delphi va Basic tillarini o'rganishadi. Ma'lumki, talabalarning hech biri birdaniga uchta kursga borishga rozi bo'limgan. PMIda nechta talaba bor? Ularning qanchasi faqat Delphini o'rganadi?

**1.1.30.** Statistik mutaxassislar Golden Beach Sayohat agentligiga tashrif buyurgan 100 kishi bilan so'rov o'tkazdilar. Ma'lum bo'lishicha, so'nggi 5 yil ichida 50 kishi Turkiyada ta'tilga chiqqan, shulardan 20 kishi Gretsiyada, 18 kishi Misrda va besh kishi ushbu uchala mamlakatda uch yil bo'lgan. Respondentlardan 50 kishi Gretsiyaning diqqatga sazovor joylari bilan tanishishdi, shundan 26 kishi faqat ikki davlatga tashrif buyurishdi. Piramidalar mamlakatiga necha kishi tashrif buyurdi?

**1.1.31.** 40 talabandan o'tkazilgan imtihonlar natijalariga ko'ra 11 talaba matematikadan, 15 ta fizikadan, 13 ta kimyo fanidan, 4 ta matematika va fizikadan, 3 ta matematika va kimyodan, 3 ta fizika va kimyo fanlaridan a'lo baholarga ega bo'lishdi. uchala fandan – 1ta. Qancha talabalar kamida bitta a'lo bahoga ega bo'lishdi?

**1.1.32.** May oyida 12 yomg'irli, 8 shamolli, 4 sovuq, 5 yomg'irli va shamolli, 3 yomg'irli va sovuq, 2 shamolli va sovuq kunlar bo'lgan va bir kun yomg'irli, shamolli va sovuq bo'lgan. May oyida shamol va yomg'irsiz necha kun issiq edi?

**1.1.33.** Yozda Anapada dam olayotgan Kostromaning 100 aholisining har biri ekskursiyalarda, delfinariumda yoki akvaparkda edi. Ulardan 67 kishi akvaparkga tashrif buyurishdi, ekskursiyalar - 82, delfinarium - 67, ekskursiyalar va delfinarium - 53, ekskursiyalar va akvapark - 58, delfinarium va akvapark - 51. Uchala tadbirda nechta Kostromaliklar bo'lgan?

**1.1.34.** Guruh sardori jismoniy tarbiya bo'yicha quyidagi hisobotni taqdim etdi. Hammasi - 45 talaba. Futbol sektsiyasida - 25 kishi, basketbol sektsiyasida - 30, shaxmat sektsiyasida - 28, futbol va basketbolda - 16, futbol va shaxmatda- 18, basketbol va shaxmatda - 17. Uch sektsiyada bir vaqtning o'zida 15 kishi shug'ullanadi. Hisobot nima uchun qabul qilinmaganligini tushuntiring?

**1.1.35.** Odamlarning qo'rquvga qarshi kurashish klubida 100 kishi, o'rgimchaklardan 60, 54 kishi ilonlardan, 55 sichqonlardan, 38 o'rgimchak va ilonlardan, 34 ilonlar va sichqonlardan, 40 kishi o'rgimchak va sichqonlardan, 20 kishi yopiq joylardan qo'rqishadi. a) Qancha odamlar o'rgimchaklardan yoki sichqonlardan qo'rqishadi, lekin ilonlardan qo'rqlaydilar? b) Qancha odamlar faqat bittasidan qo'rqishadi? c) Qancha odamlar uchtasidan, ikkitasidan qo'rqishadi? d) Qancha odamlar ilon yoki o'rgimchaklardan qo'rqlaydi? e) Qancha odamlar faqat ilonlardan qo'rqishadi?

**1.1.36.** Oltin baliqni qo'lga kiritish uchun omadli bo'lganlar orasida yangi kvartirani orzu qilganlar 18 kishi, qimmatbaho mashina - 14, yaxshi ish - 28, kvartira va avtomobil - 5, kvartira va ish - 10, mashina va ish - 8 ta, har uchala tilaklar 3 kishi. Oltin baliqni qancha odam ushladi? Ulardan qanchasi bitta tilakni amalga oshirdi?

**1.1.37.** Chang'i, xokkey va konkida uchish sektsiyalarida 38 talaba qatnashadi. Ma'lumki, chang'i sektsiyasida 21 talaba shug'ullanadi, shulardan 3 talaba konkida uchish bilan shug'ullangan, 6 talaba xokkey sektsiyasida va bitta talaba bir vaqtning o'zida barcha uch seksiyalar bilan shug'ullangan. Konkida uchish bo'yicha 13 talaba tahsil oldi, shundan 5 talaba bir vaqtning o'zida ikkita sektsiyada tahsil olishdi. Xokkey bo'limida nechta talaba qatnashdi?

**1.1.38.** O'qituvchi guruhdagi 40 talabadan qaysi biri A, B va S kitoblarini o'qishini aniqlashga qaror qildi: so'rov natijalari quyidagicha: A kitobi 25 talaba tomonidan o'qilgan, B kitobni - 22, shuningdek S kitobni ham - 22. 33ta talabalar tomonidan A yoki B kitob o'qilgan. A yoki C - 32, B yoki C - 31; har uchala kitobni 10 talaba o'qidi. Qancha talabalar faqat bitta kitob o'qiydi? Qancha talabalar ushbu uchta kitobdan birini o'qimadilar?

## 1.2. Binar munosabatlar.

$A^8$  to'plamning ixtiyoriy  $R$  qism to'plami  $A$  to'plamda **binar munosabat** deyiladi. Agar  $(x, y) \in R$  bo'lsa, u holda  $x$  element  $y$  element bilan  $R$  binar munosabatda deyiladi va  $xR y$  kabi yoziladi.

Matematikadagi muhim binar munosabatlar uchun ayrim belgilar kiritilgan.

**Misollar:** I)  $R$  haqiqiy sonlar to'plamida  $x$  va  $y$  sonlarning tenglik munosabati. Uning belgisi  $x = y$ . Bu munosabat  $R^2$  tekisliqsagi  $y = x$  to'g'ri chiziq nuqtalari bilan beriladi.

2)  $R$  haqiqiy sonlar to'plamida  $x$  va  $y$  sonlarning tengmaslik munosabati. Uning belgisi  $x \neq y$ . Bu munosabat  $R^2$  tekislikda  $y = x$  to'g'ri chiziqqa kirmagan barcha nuqtalardan iborat bo'lган to'plam bilan beriladi.

3)  $R$  da  $y$  sonning  $x$  sondan katta ekanligi munosabati: belgisi  $y > x$  yoki  $x < y$ . Bu munosabat  $R^2$  da  $y = x$  to'g'ri chiziqdan yuqorida yotuvchi nuqtalar to'plami bilan beriladi;

4)  $A = V$  — to'plamlarning tenglik munosabati;

5)  $A \neq V$  — to'ilamlarning tengmaslik munosabati;

6)  $A \subseteq V$  yoki  $V \supseteq A$  — qism to'plam munosabati;

7)  $A \subset V$  yoki  $V \supseteq A$  — xos qism to'plam munosabati;

8)  $\alpha \parallel \beta$  — to'g'ri chiziqlarning parallellik munosabati;

9)  $a \perp \beta$  — to'g'ri chiziqlarning perpendikulyarlik munosabati;

10)  $a \Rightarrow \beta$  — bir tenglamalar tizimi ikkinchisining natijasi ekanligi;

11)  $a \Leftrightarrow \beta$  — ikkita tenglamalar tizimining teng kuchlilik munosabati.

Agar  $A$  to'plamda berilgan biror  $R$  munosabat shunday bo'lsaki, har qanday  $a \in A$  uchun  $aRa$  o'rini bo'lsa, u **refleksiv** munosabat deyiladi. Agar  $aRb$  munosabatdan  $a \neq b$  munosabat kelib chiqsa, (ya'ni  $aRa$  munosabat hech qanday  $a \in A$  element uchun bajarilmasa), bunday munosabat **antirefleksiv** deyiladi.

Agar  $aRb$  munosabatning bajarilishidan  $bRa$  munosabatning ham bajarilishi kelib chiqsa, bunday munosabat  $A$  da **simmetriklik munosabati** deyiladi.

Agar  $aRb$  va  $bRs$  munosabatlarning bajarilishidan  $aRs$  bajarilishi kelib chiqsa, bunday munosabat **tranzitivlik** deyiladi va *ko'pincha  $a \sim b$  belgi ishlataladi*.

Ekvivalentlikka misollar:

- 1) haqiqiy sonlarning tenglik munosabati;
- 2) to'plamlarning tenglik munosabati;
- 3) tenglamalar tizimlarining teng kuchlilik munosabati;
- 4) funksiyalarning tenglik munosabati.
- 5) Muhim misol.  $A$  to'plamda  $N$  o'zgartirishlar guruhi berilgan bo'lsin.

Bu  $N$  o'zgartirishlar guruhi yordamida  $A$  da ekvivalentlik tushunchasini kiritamiz.

Agar  $A$  to'plamning  $a$  va  $b$  elementlari uchun shunday  $h \in H$  bieksiya mavjud bo'lsaki,  $h(a) = b$  bo'lsa, bu elementlar  $N$  — zkvivalent deyiladi va  $a \sim b$  ko'rinishda yoziladi.

Agar ixtiyoriy  $a \in A$  ni olib,  $h \in N$  sifatida  $e_A$  ni olsak ( $e_A$  — birlik aks ettirish o'zgartirishlar guruhining ta'rifidagi d2) shartga ko'ra  $H$  ga tegishli,  $e_A(a) = a$ , ya'ni har qanday  $a \in A$  uchun  $a \sim a$  (refleksivlik).

Endi  $a \sim b$  bo'lsin. U holda shunday  $h \in N$  mavjudki,  $h(a) = b$ . O'zgartirishlar guruhining ta'rifidagi d3) shartga ko'ra.  $h^{-1} \in N$ . U holda  $h(a) = b$  tenglikka  $h^{-1}$  tatbiq qilsak,  $h^{-1}(h(a)) = h^{-1}(b)$ . Bundan  $a = h^{-1}(b)$ , ya'ni  $b \sim a$  (simmetriklik).

Agar  $a \sim b$  va  $b \sim s$  bo'lsa, shunday  $h_1 \in N$  va  $h_2 \in N$  bieksiyalar mavjudki,  $h_1(a) = b$ ,  $h_2(b) = s$ . Bulardan  $h_2(b) = h_2(h_1(a)) = s$ , ya'ni  $(h_2h_1)(a) = s$ . O'zgartirishlar guruhining d1) shartiga ko'ra  $h_2h_1 \in N$ . Bundan va  $(h_2h_1)(d) = s$  tenglikdan  $a \sim c$  munosabatni olamiz (tranzitivlik).

Demak,  $a \sim b$  ( $N$  — ekvivalentlik) haqiqatan ham ekvivalentlik munosabati ekan.

**Misollar.** 1.  $\{<2,4>, <5,6>, <7,6>, <8,8>\}$  tartiblangan juftliklar to'plami binar munosabatga misol bo'la oladi.

2. Agar  $\rho$  ayniyat munosabatini bildirsa, u vaqtida  $<x, y> \in \rho$  degani  $x \equiv y$  ni bildiradi.

3. Agar  $\rho$  onalik munosabatini bildirsa, u vaqtida  $\langle Xurshida, Iroda \rangle \in \rho$  simvol Xurshida Irodaning onasi ekanligini bildiradi.

**Misol:**  $\{<2,4>, <3,3>, <6,7>\}$   $\rho$  munosabat berilgan bo'lsin. U vaqtida  $D_\rho = \{2,3,6\}$ ,  $R_\rho = \{4,3,7\}$ .

Biror  $C$  to'plam  $<x, y>$  tartiblangan juftliklar to'plami bo'lsin. Agarda  $x$  biror  $X$  to'plamning elementi va  $y$  boshqa  $Y$  to'plamning elementi bo'lsa, u vaqtida  $C$  to'plam  $X$  va  $Y$  to'plamlarning to'g'ri (dekart) ko'paytmasidan tuzilgan to'plam deyiladi va  $C = X \times Y = \{<x, y> / x \in X \text{ va } y \in Y\}$  shaklida belgilanadi.

Har bir  $\rho$  munosabat ayrim olingan  $X \times Y$  to'g'ri ko'paytmaning qism to'plami bo'ladi va  $X \supseteq D_\rho$ ,  $Y \supseteq R_\rho$ . Agar  $\rho \subseteq X \times Y$  bo'lsa, u vaqtida  $\rho$  X dan  $Y$  ga bo'lган munosabat deb aytildi. Agar  $\rho \subseteq X \times Y$  va  $Z \supseteq X \cup Y$  bo'lsa, u vaqtida  $\rho$  dan  $Z$  ga bo'lган munosabat deb aytildi.  $Z$  dan  $Z$  ga bo'lган munosabatni  $Z$  ichidagi munosabat deb aytildi.

$X$  qandaydir to'plam bo'lsin. U vaqtida  $X$  ichidagi  $X \times X$  munosabatni  $X$  ichidagi universal munosabat deb aytildi.

$\{<x, x> / x \in X\}$  munosabat  $X$  ichidagi ayniyat munosabati deb aytildi va  $i_x$  yoki  $i$  simvoli bilan belgilanadi. Har qanday  $X$  to'plamining  $x$  va  $y$  elementlari uchun  $x i_x y$  ifoda  $x = y$  bilan teng kuchlidir.

$A$  to'plam va  $\rho$  munosabat berilgan bo'lzin. U vaqtida  $\rho[A] = \{y / A$  ning ayrim  $x$  lari uchun  $x \rho y\}$ . Bu to'plamga  $A$  to'plam elementlarining  $\rho$ -obrazlari to'plami deb aytildi.

**Misollar.**  $y = 2x + 1$  to'g'ri chiziqni  $\{x, y \in R \times R / y = 2x + 1\}$  va  $y < x$  munosabatini  $\{x, y \in R \times R / y < x\}$  shakllarda yozish mumkin.

### **Muammoli masala va topshiriqlar:**

**1.2.1.**  $A = \{1, 2, 3\}$  va  $B = \{a, b\}$  berilgan bo'lsa,  $A \times B, A \times A, B \times A, B \times B, A \times \emptyset, 2^A, 2^B, B \times 2^B$  ni toping.

**1.2.2.**  $A = \emptyset, B = \{\emptyset\}$  va  $C = \{\emptyset, \{\emptyset\}\}$ .  $A \times B, A \times C, B \times C, B \times B, C \times C, 2^A, 2^B, 2^C, B \times 2^B, B \times 2^C, C \times 2^B$ .

**1.2.3.** Ixtiyoriy  $A, B, C, D$  to'plamlar uchun quyidagi tenglilarning qaysi o'rinni:

- 1)  $A \times B = B \times A$ ;
- 2)  $(A \cup B) \times C = (A \times C) \cup (B \times C)$ ;
- 3)  $(A \cap B) \times (C \cap D) = (A \times C) \cap (B \times D)$ ;
- 4)  $(A \cup B) \times (C \cup D) = (A \times C) \cup (B \times D)$ ;
- 5)  $(A - B) \times C = (A \times C) - (B \times C)$ ?

**1.2.4.**  $\{1, 2, 3, 4, 5\}$  to'plamlar uchun munosabatning qaysi xossalari o'rinni bo'lishini aniqlang:

$$\begin{aligned}
 R_1 : aR_1b &\Leftrightarrow |a - b| = 1; \\
 R_2 : aR_2b &\Leftrightarrow 0 < a - b < 3; \\
 R_3 : aR_3b &\Leftrightarrow a + b - \text{juft sonlar}; \\
 R_4 : aR_4b &\Leftrightarrow a \geq b^2; \\
 R_5 : aR_5b &\Leftrightarrow EKUB(a, b) = 1.
 \end{aligned}$$

**1.2.5.** Quyidagi tasdiqlarning qaysi biri to'g'riliginani aniqlang:

- 1) to'plamdagisi barcha munosabatlar yo'simmetrik, yoki antisimmetrikdir;
- 2) hech bir munosabat bir vaqtda ham simmetrik, ham antisimmetrik bo'la olmaydi;
- 3) ixtiyoriy  $R$  munosabat uchun  $R \cup R^{-1}$  va  $R \cap R^{-1}$  munosabat simmetrik bo'ladi;
- 4) ixtiyoriy  $R$  munosabat uchun  $R - (R \cap R^{-1})$  munosabat antisimmetrik bo'ladi;
- 5) agar  $R$  munosabatda xossalardan birini qanoatlantirsa, u holda  $R^{-1}$  munosabatda ham shu xossani qanoatlantiradi;
- 6) ixtiyoriy  $R$  munosabat uchun  $R \circ R^{-1}$  munosabat simmetrik bo'ladi;
- 7) ixtiyoriy  $R$  munosabat uchun  $R \circ R^{-1}$  munosabat refleksiv bo'ladi;
- 8) Agar  $R_1$  va  $R_2$  ikkala munosabatda xossalardan birini qanoatlantirsa, u holda  $R_1 \circ R_2$  munosabat ham shu xossani qanoatlantiradi.

**1.2.6.** Quyidagi tasdiqlarning qaysi biri to'g'riliginani aniqlang:

- 1) Agar  $R_1$  va  $R_2$  ekvivalentlik munosabati bo'lsa, unda  $R_1 \circ R_2$  ekvivalentlik munosabati bo'ladi;
- 2) Agar  $R_1$  va  $R_2$  ekvivalentlik munosabati bo'lsa, unda  $R_1 \cap R_2$  ekvivalentlik munosabati bo'ladi;
- 3) Agar  $R_1$  va  $R_2$  ekvivalentlik munosabati bo'lsa, unda  $R_1 \cup R_2$  ekvivalentlik munosabati bo'ladi;

**1.2.7.**  $\{a, b\}$  ikki elementli to'plamda barcha munosabatlarni toping va ular orasida

- |                          |  |
|--------------------------|--|
| 1) barcha refleksiv;     | 4) barcha tranzitiv;                       |
| 2) barcha simmetrik;     | 5) barcha ekvivalent;                      |
| 3) barcha antisimmetrik; | 6) barcha tartib munosabatlarni ko'sating. |

**1.2.8.**  $\{0,1,\dots,9\}$  to'plamda berilgan quyidagi munosabatlardan qaysi ekvivalentlik munosabati bo'lishini aniqlang;

$$R_1 : aR_1 b \Leftrightarrow a \equiv b \pmod{3} ;$$

$$R_2 : aR_2 b \Leftrightarrow a^2 \equiv b^2 \pmod{10} ;$$

$$R_3 : aR_3 b \Leftrightarrow ab \equiv 0 \pmod{2} ;$$

$$R_4 : aR_4 b \Leftrightarrow |2^a - 2^b| < 16 ;$$

$$R_5 : aR_5 b \Leftrightarrow |2^a - 2^b| \leq 16 ;$$

$$R_6 : aR_6 b \Leftrightarrow EKUB(a,b) = 1 .$$

**1.2.9.**  $Z$  - butun sonlar to'plamida  $R : xR y \Leftrightarrow x = y^2$  munosabat aniqlangan.  $R \circ R^{-1}, R^{-1} \circ R$  munosabatlardan birortasi ekvivalentlik munosabati bo'ladimi?

**1.2.10.** Quyidagi munobatlardan qaysilari  $Z^2$  da ekvivalentlik munosabati bo'ladi?

$$R_1 : (x_1, y_1) R_1 (x_2, y_2) \Leftrightarrow x_1 = x_2 ;$$

$$R_2 : (x_1, y_1) R_2 (x_2, y_2) \Leftrightarrow x_1 = x_2 \text{ yoki } y_1 = y_2 ;$$

$$R_3 : (x_1, y_1) R_3 (x_2, y_2) \Leftrightarrow x_1 + y_1 = x_2 + y_2 ;$$

$$R_4 : (x_1, y_1) R_4 (x_2, y_2) \Leftrightarrow x_1 + y_2 = y_1 + x_2 ;$$

$$R_5 : (x_1, y_1) R_5 (x_2, y_2) \Leftrightarrow x_1 < x_2 \text{ yoki } x_1 = x_2, y_1 \leq y_2 ?$$

**1.2.11.**  $n$  ( $n = 1, 2, 3, 4$ ) ta elementli to'plamda nechta turli ekvivalentlik munosabatlarini aniqlash mumkin?

**1.2.12.**  $U$  universal to'plaam berilgan.  $2^U$  da quyidagi munosabatlardan qaysilari ekvivalentlik yoki tartib munosabati bo'ladi:

$$1) AR_1B \Leftrightarrow A \cap B = \emptyset ;$$

- 2)  $AR_2B \leftrightarrow A-B = \emptyset;$
- 3)  $AR_3 B \leftrightarrow A-B=B-A;$
- 4)  $AR_4 B \leftrightarrow |A|=|B|?$

**1.2.13.** Uchta elementli to'plamda nechta turli tartib munosabatlarini aniqlash mumkin? Ular orasida chiziqlilari nechta?

**1.2.14.**  $y = 2x + 1$  to'g'ri chiziqni  $\{<x, y> \in R \times R / y = 2x + 1\}$  va  $y < x$  munosabatini  $\{<x, y> \in R \times R / y < x\}$  shakllarda yozish mumkinligini tushuntiring.

**1.2.15.**  $\{<2,4>, <5,6>, <7,6>, <8,8>\}$  tartilangan juftliklar to'plami binar munosabat bo'la oladimi?

**1.2.16.** A-tekislikdagi barcha to'g'ri chiziqlar to'plami bo'lsin. Ixtiyoriy a,b tug'ri chiziqlar uchun  $(atb)=(a \parallel b)$  bo'lsa, A dagi: Parallelik munosabati: refleksiv bo'ladimi?

**1.2.17.** A-tekislikdagi barcha to'g'ri chiziqlar to'plami bo'lsin. Ixtiyoriy a,b tug'ri chiziqlar uchun  $(atb)=(a \parallel b)$  bo'lsa, A dagi: Parallelik munosabati: simmetrik bo'ladimi?

**1.2.18.** A-tekislikdagi barcha to'g'ri chiziqlar to'plami bo'lsin. Ixtiyoriy a,b tug'ri chiziqlar uchun  $(atb)=(a \parallel b)$  bo'lsa, A dagi: Parallelik munosabati: tranzitiv bo'ladimi?

**1.2.19.** A-tekislikdagi barcha to'g'ri chiziqlar to'plami bo'lsin. Ixtiyoriy a,b tug'ri chiziqlar uchun  $a \tau b = a \perp b$  bo'lsa,  $\tau$  perpendikulyarlik munosabati: antirefleksiv bo'ladimi?

**1.2.20.** A-tekislikdagi barcha to'g'ri chiziqlar to'plami bo'lsin. Ixtiyoriy a,b tug'ri chiziqlar uchun  $a \tau b = a \perp b$  bo'lsa,  $\tau$  perpendikulyarlik munosabati: simmetrik bo'ladimi?

**1.2.21.**  $M_3$  to'plamda  $\tau=\{<1,2>, <2;2>, <1;3>\}$  va  $\sigma= \{<1;1>, <2;2>, <3;1>\}$  binar munosabatlar aniqlangan bo'lsin, u xolda  $\tau \cdot \sigma$  ni hisoblang?

**1.2.22.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  
 $\tau = \{< 1;1 >, < 2;2 >\} \subset N^2$ .

**1.2.23.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  
 $\tau = \{< 1;5 >\} \subset N^2$ .

**1.2.24.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  
 $\tau = \{< 1;2 >, < 2;1 >, < 1;1 >, < 2;2 >, < 3;5 >, < 5;3 >, < 3;3 >, < 5;5 >\}$

**1.2.25.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  
 $\tau = \{< 1;3 >, < 3;1 >, < 4;5 >, < 5;4 >\} \subset N^2$ .

**1.2.26.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  $\forall (a,b \in N), a\tau b \Leftrightarrow b < 2a$ .

**1.2.27.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  $\forall (a,b \in N), a\tau b \Leftrightarrow a = b^2$ .

**1.2.28.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  $\forall (a,b \in N), a\tau b \Leftrightarrow a < b$ .

**1.2.29.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  $\forall (a,b \in N), a\tau b \Leftrightarrow a - b = 12$ .

**1.2.30.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  $\forall (a,b \in N), a\tau b \Leftrightarrow |a - b| = 12$ .

**1.2.31.** N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping:  $\forall (a,b \in N), a \tau b \Leftrightarrow (a-b) : 10$ .

**1.2.32.**  $M_n = \{ \{1,2,\dots,n\} \subset N \}$  to‘plamda bir vaqtda refleksiv va antirefleksif bo‘lmagan binar munosabatlar mavjudmi?

**1.2.33.**  $M_1, M_2, M_3$  va  $M_n = \{ \{1,2,\dots,n\} \subset N \}$  to‘plamlarning har birida nechtadan binar munosabat aniqlash mumkin?

**1.2.34.**  $M_{10}$  ( $M_n = \{ \{1,2,\dots,n\} \subset N \}$ ) to‘plamda  $\forall (a,b \in M_{10}) a \tau b \Leftrightarrow a-b=8$ ; aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlgini toping.

**1.2.35.**  $M_{10}$  ( $M_n = \{ \{1,2,\dots,n\} \subset N \}$ ) to‘plamda  $\forall (a,b \in M_{10}) a \tau b \Leftrightarrow b=a^2$  aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlgini toping.

**1.2.36.**  $M_{10}$  ( $M_n = \{ \{1,2,\dots,n\} \subset N \}$ ) to‘plamda  $\forall (a,b \in M_{10}) a \tau b \Leftrightarrow a-b=12$ ; aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlgini toping.

**1.2.37.**  $M_{10}$  ( $M_n = \{ \{1,2,\dots,n\} \subset N \}$ ) to‘plamda  $\forall (a,b \in M_{10}) a \tau b \Leftrightarrow b > a^2$  aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlgini toping.

**1.2.38.**  $M_3$  to‘plamda aniqlangan  $\tau = \{<1;1>, <2;1>, <2;3>, <3;3>\}$  munosabatga teskari  $\tau^{-1}$  munosabatlarni toping.

**1.2.39.**  $M_3$  to‘plamda aniqlangan  $\sigma = \{<1;1>, <2;1>, <1;2>, <2;2>\}$  munosabatga teskari  $\sigma^{-1}$  munosabatlarni toping.

**1.2.40.**  $M_3$  to‘plamda aniqlangan  $\rho = \{<1;2>, <1;3>, <2;3>\}$  munosabatga teskari  $\rho^{-1}$  munosabatlarni toping.

**1.2.41.**  $M_3$  to‘plamda aniqlangan  $\tau = \{<1;1>, <2;3>, <1;2>\}$  va  $\sigma = \{<1;1>, <1;3>, <3;3>\}$  binar munosabatlarni ko‘paytmasini toping.

**1.2.42.**  $M_4$  to‘plamda aniqlangan  $\tau = \{<1;1>, <2;3>\}$ ,  $\sigma = \{<1;2>, <2;3>, <3;4>\}$  binar munosabatlarni ko‘paytmasini  $\tau\sigma$  toping.

**1.2.43.**  $M_4$  to‘plamda aniqlangan  $\tau = \{<1;1>, <2;3>\}$ ,  $\sigma = \{<1;2>, <2;3>, <3;4>\}$  binar munosabatlarni ko‘paytmasini  $\sigma\tau$  toping.

**1.2.44.**  $M_4$  to‘plamda aniqlangan  $\tau = \{<1;1>, <2;3>\}$  binar munosabat uchun  $\tau^2$  toping.

**1.2.45.**  $M_4$  to‘plamda aniqlangan  $\sigma = \{<1;2>, <2;3>, <3;4>\}$  binar munosabat uchun  $\tau^2$  toping.

## 2-BOB. MULOHAZALAR ALGEBRASI.

### 2.1. Mulohazalar va ular ustida amallar. Formula, qism formulalar. Chinlik jadvali.

O’zgaruvchilar soni  $n$  ta bo’lsa, u vaqtida  $C_n^0 + C_n^1 + C_n^2 + \dots + C_n^n = 2^n$  ta qiymatlar satriga ega bo’lamiz.

1. **Inkor amali.**  $\bar{x}$  mulohaza “ $x$  emas” deb o’qiladi.  $x$  mulohazaning inkori deb atalgan  $\bar{x}$  mulohaza shu bilan xarakterlanadi,  $x$  mulohaza “**ch**” qiymatni qabul qilganda,  $\bar{x}$  mulohaza “**yo**” qiymatni qabul qiladi va aksincha.
2. **Kon’yunkstiya (mantiqiy ko’paytma) amali.**  $x$  va  $y$  o’zgaruvchi mulohazalar ustida bajariladigan kon’yunkstiya (lotincha conjunctio - bog’layman so’zidan)  $x \wedge y$  yoki  $x \& y$  ko’rinishda belgilanadi. “Va” bog’lovchisiga mos keluvchi mantiqiy amalga kon’yunkstiya amali deb aytamiz.  $x \wedge y$  ko’rinishdagi mulohaza « $x$  va  $y$ » deb o’qiladi.
3. **Diz’yunkstiya (mantiqiy yig’indi) amali.** Rad etmaydigan ma’noda ishlatiladigan “yoki” mantiqiy amal diz’yunkstiya (lotincha disjunctio - farq qilaman so’zidan) deyiladi. Ikkita  $x$  va  $y$  mulohazaning diz’yunkstiyasi “ $x \vee y$ ” kabi yoziladi va “ $x$  yoki  $y$ ” deb o’qiladi.
4. **implikastiya** (lotincha implicatio - zikh bog’layman so’zidan). Implikastiya amalini  $\rightarrow$  ko’rinishida belgilaymiz. “ $x \rightarrow y$ ” mulohaza “agar  $x$ , u holda  $y$ ” deb o’qiladi.
5. **Ekvivalentlik (tengkuchlilik) amali.** Ko’p murakkab mulohazalar

elementar mulohazalardan “zarur va kifoya”, “faqat va faqat”, “shunda va faqat shundagina, qachonki”, “.....bajarilishi etarli va zarurdir” kabi bog’lovchilari yordamida tuziladi. “ $\leftrightarrow$ ” kabi belgilanadi.  $x \leftrightarrow y$  murakkab mulohaza “**x** ekvivalent **y**” deb o’qiladi.

**6. Sheffer amali (shtrixi).** “|” kabi belgilanadi. Murakkab mulohaza “ $x | y$ ” “ $x$  Sheffer shtrixi  $y$ ” deb o’qiladi.

**7. Pirs strelkasi** “ $\downarrow$ ” kabi belgilanadi. Murakkab mulohaza “ $x \downarrow y$ ” “ $x$  Pirs strelkasi  $y$ ” deb o’qiladi.

$x$	$y$	$x \wedge y$	$x \vee y$	$x \rightarrow y$	$x \leftrightarrow y$	$x   y$	$x \downarrow y$
ch	ch	ch	ch	ch	ch	yo	yo
ch	yo	yo	ch	yo	yo	ch	yo
$$\begin{cases} g_3(x, y) = x - \text{aynan } x \text{ ga teng funksiya} \\ g_{12}(x, y) = x' - x \text{ ning inkori} \end{cases}$$

$$\begin{cases} g_4(x, y) = (x \leftarrow y)' = (y \rightarrow x)' \\ g_{11}(x, y) = x \leftarrow y = y \rightarrow x - \text{antiimplikasiya} \end{cases}$$

$$\begin{cases} g_5(x, y) = y - \text{aynan } y \text{ ga teng funksiya} \\ g_{10}(x, y) = y' - y \text{ ning inkori} \end{cases}$$

$$\begin{cases} g_6(x, y) = x + y \text{ Jegalkin yig'indi} \\ g_9(x, y) = x \leftrightarrow y - \text{ekvivalentlik} \end{cases}$$

$$\begin{cases} g_7(x, y) = x \vee y - \text{diz' yunksiya} \\ g_8(x, y) = x \downarrow y - \text{Pirs strelkasi} \end{cases}$$

**Asosiy elementar bul funksiyalari:**

$$f_1(x) = x, \quad f_2(x) = \bar{x}, \quad f_3(x, y) = xy, \quad f_4(x, y) = x \vee y, \quad f_5(x, y) = x \rightarrow y,$$

$$f_6(x, y) = x \leftrightarrow y, \quad f_7(x_1, \dots, x_n) = 1, \quad f_8(x_1, \dots, x_n) = 0.$$

Agar  $f(0, 0, \dots, 0) = 0$  bo'lsa, u holda  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyaga **0 saqlovchi funksiya** ( $P_0$ ) deb aytildi. Agar  $f(1, 1, \dots, 1) = 1$  bo'lsa, u vaqtida  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyaga **1 saqlovchi funksiya** ( $P_1$ ) deb aytamiz.

$n$  argumentli **0 saqlovchi funksiyalarining soni**  $2^{2^n - 1}$  ga va **1 saqlovchi funksiyalarining soni ham**  $2^{2^n - 1}$  ga teng bo'ladi

$$f(x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, 1, x_{i+1}, \dots, x_n) = f(x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, 0, x_{i+1}, \dots, x_n),$$

bajarilsa,  $x_i$  argumentga  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyaning **soxta argumenti** deb aytiladi.

$f(x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, 1, x_{i+1}, \dots, x_n) \neq f(x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, 0, x_{i+1}, \dots, x_n)$  bo'lsa, u holda  $x_i$  argumentga  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyaning **muhim argumenti** deb aytiladi.

**Misol.**  $f(x, y) = x \cdot (x \vee y)$  funksiya uchun u argumenti soxta argument bo'ladi, chunki  $f(1, 0) = f(0, 1)$ .

### **Muammoli masala va topshiriqlar:**

**3.1.1.**  $f_1 = \overline{\overline{xy} \vee z}$  va  $f_2 = x (xy \vee \overline{yz} \vee (\overline{y} \vee \overline{tz}))$  funksiyalarga tengkuchli bo'lgan funksiyalarni toping.

**3.1.2.** Yolg'on qiymat saqlovchi ( $f(0, 0, \dots, 0) = 0$ )  $n$  argumentli har xil funksiyalarning soni nechta?

**3.1.3.** Chin qiymat saqlovchi ( $f(1, 1, \dots, 1) = 1$ )  $n$  argumentli har xil funksiyalarning soni nechta?

**3.1.4.** Quyidagi  $f_1(x, y, z, t) = (x \vee y)(z \vee t)$  va  $f_2(x, y, z, t) =$   
 $= xz \vee yz \vee xt \vee yt$  hamda  $f_3(x, y, z, t) = xy \vee zt$  va  
 $f_4(x, y, z, t) = (x \vee z)(y \vee z)(x \vee t)(y \vee t)$  funksiyalarning tengkuchliligini isbotlang.

**3.1.5.** Quyidagi bul funksiyalari uchun qiymatlar jadvalini tuzing:

- 1)  $f(x, y, z) = ((x \rightarrow z)y') \rightarrow x'$ ;
- 2)  $f(x, y, z) = ((x \vee y') \rightarrow z)((x|y) \leftrightarrow z')$ ;
- 3)  $f(x, y, z) = x' \rightarrow (x \leftrightarrow (y + (xz)))$ ;
- 4)  $f(x, y, z) = (((x|y)\downarrow z)|y)\downarrow z$ ;
- 5)  $f(x, y, z) = (x'y'z')\downarrow (xyz)$ ;
- 6)  $f(x, y, z) = x'y' + yz' + xy$ ;

- 7)  $f(x,y,z) = (x \downarrow y)' + zx + xy;$   
 8)  $f(x,y,z) = ((x/y) + (y/z)) + xyz;$   
 9)  $f(x,y,z) = ((x+y)(y+z)')';$   
 10)  $f(x,y,z) = (xyz) | (x'y'z');$   
 11)  $f(x,y,z) = ((x \rightarrow (y \vee z))(yz)') \rightarrow x;$

**Yechim:** 11)  $f(x,y,z) = ((x \rightarrow (y \vee z))(yz)') \rightarrow x$  bul funksiyasi uchun qiymatlar jadvalini tuzamiz:

$x$	$y$	$z$	$y \vee z$	$x \rightarrow (y \vee z)$	$yz$	$(yz)'$	$((x \rightarrow (y \vee z))(yz)')$	$f$
0	0	0	0	1	0	1	1	1
0	0	1	1	1	0	1	1	1
0	1	0	1	1	0	1	1	1
0	1	1	1	1	1	0	0	0
1	0	0	0	0	0	1	0	0
1	0	1	1	1	0	1	1	0
1	1	0	1	1	0	1	1	0
1	1	1	1	1	1	0	0	0

**3.1.6.** Tegishli qiymatlar jadvalini tuzib, bul funksiyalarining teng yoki teng emasligini tekshiring:

- 1)  $f(x,y,z) = ((x \vee y) \vee z) \rightarrow ((x \vee y)(x \vee z)),$   
 $g(x,y,z) = x \vee (y \leftrightarrow z);$
- 2)  $f(x,y,z) = (x' \vee y)(y \vee z),$   
 $g(x,y,z) = (x \vee y \vee z)(x' \vee y \vee z)(x' \vee y \vee z');$
- 3)  $f(x,y,z) = (x \rightarrow y) \rightarrow z,$   
 $g(x,y,z) = x \rightarrow (y \rightarrow z);$
- 4)  $f(x,y) = ((x+y) \rightarrow (x \vee y))((x' \rightarrow y) \rightarrow (x+y)),$   
 $g(x,y) = x/y;$

$$5) \ f(x,y,z) = ((x \vee y')z) \vee (xz') \vee (z(y \vee z')),$$

$$g(x,y,z) = x \vee z;$$

$$6) \ f(x,y,z) = xy \vee xz \vee yz,$$

$$g(x,y,z) = (x+y)z \vee zy;$$

$$7) \ f(x,y,z) = xy' \vee x'y \vee x'z',$$

$$g(x,y,z) = (x' \vee y')(x \vee y \vee z');$$

$$8) \ f(x,y,z) = x'y'z' \vee x'yz \vee xyz \vee xy'z,$$

$$g(x,y,z) = (x \rightarrow yz)(y \leftrightarrow z) \vee (y \rightarrow xz)(x \leftrightarrow z);$$

$$9) \ f(x,y,z) = ((y'+x)+z(x+y'))',$$

$$g(x,y,z) = z' \rightarrow (y \rightarrow x)';$$

$$10) \ f(x,y,z) = (x+z')'(y+x'z),$$

$$g(x,y,z) = y + (z \rightarrow x)';$$

$$11) \ f(x,y,z) = (x+y)' \vee (x+z)',$$

$$g(x,y,z) = xyz + x'y'z.$$

**Yechim: 11)**  $f$  va  $g$  funksiyalarining qiymatlar jadvalini tuzamiz:

$$f(x,y,z) = (x+y)' \vee (x+z)'$$

$x$	$y$	$z$	$x+y$	$(x+y)'$	$x+z$	$(x+z)'$	$f(x,y,z)$
0	0	0	0	1	0	1	1
0	0	1	0	1	1	0	1
0	1	0	1	0	0	1	1
0	1	1	1	0	1	0	0
1	0	0	1	0	1	0	0
1	0	1	1	0	0	1	1
1	1	0	0	1	1	0	1
1	1	1	0	1	0	1	1

$$g(x,y,z) = xyz + x'y'z'$$

$x$	$y$	$z$	$xy$	$xyz$	$x'$	$y'$	$z'$	$x'y'$	$x'y'z'$	$g(x,y,z)$
0	0	0	0	0	1	1	1	1	1	1
0	0	1	0	0	1	1	0	0	0	0
0	1	0	0	0	1	0	1	0	0	0
0	1	1	0	0	1	0	0	0	0	0
1	0	0	0	0	0	1	1	0	0	0
1	0	1	0	0	0	1	0	0	0	0
1	1	0	1	0	0	0	1	0	0	0
1	1	1	1	1	0	0	0	0	0	1

$f(0,0,1) \neq g(0,0,1)$ ,  $f(0,1,0) \neq g(0,1,0)$ ,  $f(1,0,1) \neq g(1,0,1)$ ,  
 $f(1,1,0) \neq g(1,1,0)$ . Demak,  $f(x,y,z) \neq g(x,y,z)$ .

**3.1.7.** Quyidagi tengliklarni tekshirib, distributivlik xossasini bir bul funksiyalasining boshqasiga nisbatan bajarilishini tekshiring:

- 1)  $(x \rightarrow y) \vee z = (x \vee z) \rightarrow (y \vee z)$ ;
- 2)  $(x \leftrightarrow y) \vee z = (x \vee z) \leftrightarrow y \vee z$ ;
- 3)  $x \rightarrow (y \rightarrow z) = (x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z)$ ;
- 4)  $x \rightarrow yz = (x \rightarrow z) (x \rightarrow z)$ ;
- 5)  $x \rightarrow (y \vee z) = (x \rightarrow z) \vee (y \rightarrow z)$ ;
- 6)  $x \rightarrow (y \leftrightarrow z) = (x \rightarrow z) \leftrightarrow (y \rightarrow z)$ ;
- 7)  $x(yz) = (xy)(xz)$ ;
- 8)  $x \vee (y \vee z) = (x \vee z) \vee (x \vee z)$ ;
- 9)  $x \rightarrow xy = x \rightarrow y$ ;
- 10)  $(x \vee y) \rightarrow y = x \rightarrow y$ ;
- 11)  $x \rightarrow (x \rightarrow y) = x \rightarrow y$ ;
- 12)  $x \rightarrow (x \leftrightarrow y) = x \rightarrow y$ ;

E'tibor bering 9-11 misollarda distributivlik xossasi bajarilsa, bir xil natijaga olib keladi.

**Yechim: 9)**  $x \rightarrow xy = (x \rightarrow x)(x \rightarrow y) = 1(x \rightarrow y) = x \rightarrow y$ .

**3.1.8.** Agar 3.1.7. dagi 1),2) misollarda chap distributivlik xossasi ko'rildi, endi o'ng tomonli distributivlik xossasi bajarilishini tekshiring.

Ya'ni:  $x \vee (y \rightarrow z) = (x \vee y) \rightarrow (x \vee z)$ ,  $x \vee (y \leftrightarrow z) = (x \vee y) \leftrightarrow (x \vee z)$

**3.1.9.** Ikki modul bo'yicha yig'indi (Jegalkin yig'indi) quyidagi xossalarga ega ekanligini tekshiring.

- |   |   |
|---|---|
| 1) $x+y=(x \leftrightarrow y)'$ ;   | 4) $x+0=x$ ;                                      |
| 2) $x+y=y+x$ ;  | 5) agar $x=y+z$ ; unda $y=x+z$ ;                  |
| 3) $(x+y)+z=x+(y+z)$ ;  | 6) agar $x+z=y+z$ ; unda $y=x$ ;                  |
| 7) $(x+y)z=xz+yz$ ;   | 9) $xy \vee xz \vee yz=xy+xz+yz$ ;                |
| 8) $x+x=0$ ;  | 10) $(x_1+x_2+\dots+x_n)y=x_1y+x_2y+\dots+x_ny$ ; |
| 11) $x_1+x_2+\dots+x_n=\begin{cases} 0, & \text{agar } x_1, x_2, \dots, x_n \text{ 1 lar soni juft bo'lsa,} \\ 1, & \text{agar } x_1, x_2, \dots, x_n \text{ 1 lar soni toq bo'lsa,} \end{cases}$ |   |

**3.1.10.** Bul funksiyasidagi Sheffer shtrixi ( $\mid$ ) quyidagi xossalarga ega ekanligini isbotlang:

- |                        |                                  |
|------------------------|----------------------------------|
| 1) $x/1=x/x=x'$ ;      | 7) $(x/y)'=(x' \vee y')'$ ;      |
| 2) $x/0=1$ ;           | 8) $x \vee (x/y)=y \vee (x/y)$ ; |
| 3) $x/x'=1$ ;          | 9) $(x/x)/y=y \rightarrow x$ ;   |
| 4) $x/y=y/x$ ;         | 10) $(x/x)/(y/y)=x \vee y$ ;     |
| 5) $(x/y)'=x' y'$ ;    | 11) $((x/x)'  (y/y)')'=xy$ ;     |
| 6) $x/(x \vee y)=x'$ ; |                                  |

**Yechim: 11)**  $((x/x)'| (y/y)')'=(x''|y'')'=(x/y)'=(x' \vee y')'=((xy)')'=xy$ .

**3.1.11.** Bul funksiyasidagi Pirs strelkasi ( $\downarrow$ ) quyidagi xossalarga ega ekanligini isbotlang:

- |  |  |
|--|--|
| 1) $x \downarrow x = x'$ ;                   | 7) $(x \downarrow y)' = x' \downarrow y'$ ;    |
| 2) $x \downarrow y = y \downarrow x$ ;       | 8) $x \downarrow (yx) = x'$ ;                  |
| 3) $x \downarrow 1 = 0$ ;                    | 9) $(x \downarrow y)' = (x'y')'$ ;             |
| 4) $x \downarrow 0 = 1$ ;                    | 10) $(x \downarrow x')'(x \downarrow x) = x$ ; |
| 5) $x \downarrow x' = 0$ ;                   | 11) $x(x \downarrow y) = x(1 \downarrow y)$ .  |
| 6) $x(x \downarrow y) = y(x \downarrow y)$ ; |  |

**Yechim: 11)**  $x(x \downarrow y) = x(1 \downarrow y)$ . Bu misolni chinlik jadvali yordamida osongina ko'rsatish mumkin. Tenglikning o'ng va chap tomonlari uchun quyidagicha tuzib olamiz.

$x$	$y$	$x \downarrow y$	$x(x \downarrow y)$	$1 \downarrow y$	$x(1 \downarrow y)$
0	0	1	0	0	0
0	1	0	0	0	0
1	0	0	0	0	0
1	1	0	0	0	0

**3.1.12.** Bul funksiyalarini quyidagicha inkor ('') va diz'yunksiya ( $\vee$ ) amallari yordamida ifodalash mumkinligini isbotlang:

- |  |                                      |
|--|--------------------------------------|
| 1) $xy = (x' \vee y')'$ ;  | 2) $x \rightarrow y = x' \vee y$ ;   |
| 3) $x \leftrightarrow y = (x \rightarrow y)(y \rightarrow x) = (x' \vee y)(x \vee y')$ ; |                                      |
| 4) $x + y = (x' \vee y) \vee (x \vee y')$ ;  |                                      |
| 5) $x y = x' \vee y$ ;   | 6) $x \downarrow y = (x \vee y)'$ ;  |
| 7) $(x \rightarrow y)' = (x' \vee y)$ ;  | 8) $x \vee y = (x' \vee y) \vee y$ . |

**Yechim: 8)**  $(x' \vee y) \vee y = (x' \vee y) \vee y = (x \vee y)(y' \vee y) = (x \vee y)1 = x \vee y$ .

**3.1.13.** Amallarni kon'yunksiya (.) va inkor ('') amallari yordamida ifodalang:

- |   |                                   |
|---|-----------------------------------|
| 1) diz'yunksiya ( $\vee$ );             | 2) implikasiya ( $\rightarrow$ ); |
| 3) ekvivalentlik ( $\leftrightarrow$ ); | 4) Jegalkin yig'ndisi (+);        |

$$5) \text{ Sheffer shtrixi } (\text{||}); \quad 6) \text{ Pirs strelrasi } (\downarrow);$$

**3.1.14.** Bul funksiyalarini quyidagicha Jegalkin yig'ndisi (+) va konstant 1 amallari yordamida ifodalash mumkinligini isbotlang:

$$1) x' = x + 1; \quad 2) x \vee y = (x + 1)(y + 1) + 1 = xy + x + y;$$

$$3) x \rightarrow y = xy + x + 1; \quad 4) x \leftrightarrow y = x + y + 1;$$

$$5) x/y = xy + 1; \quad 6) x \downarrow y = xy + x + y + 1;$$

$$7) (x \rightarrow y)' = xy + x; \quad 8) x'y \vee xy' = x + y;$$

$$9) x'y' \vee xy = x + y + 1; \quad 10) (x \leftrightarrow y)' = x + y;$$

$$11) (x \leftrightarrow y) \leftrightarrow z = x + y + z;$$

$$\text{Yechim: 10)} (x \leftrightarrow y) \leftrightarrow z = [x + y + 1 + z] + 1 = x + y + z + 0 = x + y + z.$$

**3.1.15.** Bul funksiyalarini quyidagicha Sheffer shtrixi (||) yordamida ifodalash mumkinligini isbotlang:

$$1) x' = x|x; \quad 2) xy = (x/y)|(x/y);$$

$$3) x \vee y = (x/x)|(y/y) \quad 4) x \rightarrow y = x/(y/y);$$

$$5) (x \rightarrow y)' = (x/(y/y))|(x/(y/y));$$

$$6) x \downarrow y = [(x/x)|(y/y)][(x/x)|(y/y)];$$

$$7) x + y = (x/(y/y))|(y/(x/x));$$

$$8) x \leftrightarrow y = [(x/(y/y))|(y/(x/x))][[(x/(y/y))|(y/(x/x))];$$

$$\text{Yechim: 7)} x + y = (x \leftrightarrow y)' = ((x \rightarrow y)(y \rightarrow x))' = (x \rightarrow y)|(y \rightarrow x) = (x/(y/y))|(y/(x/x)).$$

**3.1.16.** Amallarni Pirs strelrasi ( $\downarrow$ ) yordamida ifodalang:

$$1) \text{ inkor } (' \quad 2) \text{ diz'yunksiya } (\vee); \quad 2) \text{ implikasiya } (\rightarrow);$$

$$3) \text{ ekvivalentlik } (\leftrightarrow); \quad 4) \text{ Jegalkin yig'ndisi } (+);$$

$$5) \text{ Sheffer shtrixi } (\text{||}); \quad 6) \text{ kon'yunksiya } (.).$$

$$\text{Yechim: 3)} x \leftrightarrow y = (x \rightarrow y)(y \rightarrow x) = ((x \rightarrow y)' \vee (y \rightarrow x)')' =$$

$$= (x \rightarrow y)' \downarrow (y \rightarrow x)' = (x' \vee y') \downarrow (x \vee y)' =$$

$$(x' \downarrow y) \downarrow (x \downarrow y)' = ((x \downarrow x) \downarrow y) \downarrow (x \downarrow (y \downarrow y)).$$

**3.1.17.** Tengkuchlilikni isbotlang:

- 1)  $x \vee y = (x \rightarrow y) \rightarrow y;$
- 2)  $x \leftrightarrow y = (x \rightarrow y) \& (y \rightarrow x);$
- 3)  $x \downarrow y = ((x|x) | (y|y)) | ((x|x)(y|y));$
- 4)  $x \vee (y \leftrightarrow z) = (x \vee y) \leftrightarrow (x \vee z);$
- 5)  $x \& (y \leftrightarrow z) = ((x \& y) \leftrightarrow (x \& z)) \leftrightarrow x;$
- 6)  $x \rightarrow (y \leftrightarrow z) = (x \rightarrow y) \leftrightarrow (x \rightarrow z);$
- 7)  $x \vee (y \rightarrow z) = (x \vee y) \rightarrow (x \vee z);$
- 8)  $x \& (y \rightarrow z) = (x \rightarrow y) \rightarrow (x \& z);$
- 9)  $x \rightarrow (y \vee z) = (x \rightarrow y) \vee (x \rightarrow z);$
- 10)  $x \rightarrow (y \& z) = (x \rightarrow y) \& (x \rightarrow z);$
- 11)  $x \rightarrow (y \rightarrow z) = (x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z).$

**Yechim: 11)**  $x \rightarrow (y \rightarrow z) = x' \vee y' \vee z$  endi o'ng tomonini soddalashtiramiz:

$$\begin{aligned} (x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z) &= (x' \vee y)' \vee (x' \vee z) = xy' \vee x' \vee z = \\ &= (x \vee x' \vee z)(y' \vee x' \vee z) = x' \vee y' \vee z \end{aligned}$$

**3.1.18.** A va B formulalar ekvivalentligini tekshiring:

- 1)  $A = \overline{x \oplus y \cdot z \cdot \bar{y}} \rightarrow x \cdot z \cdot (\bar{x} \downarrow y), \quad B = \overline{(x \cdot y \rightarrow (y \downarrow z)) \vee x \cdot z \cdot z};$
- 2)  $A = (x \oplus y \cdot z) \rightarrow \bar{x} \rightarrow (y \rightarrow z), \quad B = x \rightarrow ((y \rightarrow z) \rightarrow x);$
- 3)  $A = (x \cdot y \rightarrow z) \vee ((x \downarrow y) | z), \quad B = ((x \rightarrow y \cdot z) \oplus (x \leftrightarrow y)) \vee (y \rightarrow x \cdot z);$
- 4)  $A = \bar{x} \rightarrow (\bar{y} \rightarrow (x \leftrightarrow z)) \cdot (x \leftrightarrow (y \rightarrow (z \vee (x \rightarrow y)))),$   
 $B = (x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow x;$
- 5)  $A = (((x|y) \downarrow \bar{z})|y) \downarrow (\bar{y} \rightarrow z), \quad B = ((x|y) \downarrow (y|\bar{z})) \cdot (x \rightarrow (y \rightarrow z));$
- 6)  $A = \bar{x} \vee y \cdot \bar{z} \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow ((y \vee z) \rightarrow \bar{x})), \quad B = (x \rightarrow y) \rightarrow (\bar{y} \rightarrow \bar{x});$
- 7)  $A = (x|\bar{y}) \rightarrow ((y \downarrow \bar{z}) \rightarrow (x \oplus z)), \quad B = x \cdot y \cdot z \oplus (\bar{x} \rightarrow z);$
- 8)  $A = (x \cdot \bar{y} \vee \bar{x} \cdot z) \oplus ((y \rightarrow z) \rightarrow \bar{x} \cdot y), \quad B = (x \cdot \bar{y} \cdot \bar{z} \oplus y) \oplus z;$

$$9) A = (\bar{x} \vee y) \rightarrow ((y \mid \bar{z}) \rightarrow (x \leftrightarrow x \cdot z)), B = x \cdot y \vee (\overline{x \rightarrow x \cdot y} \rightarrow z);$$

$$10) A = x \rightarrow ((\bar{x} \cdot \bar{y} \rightarrow (\bar{x} \cdot \bar{z} \rightarrow y)) \rightarrow y) \cdot z, B = \overline{x \cdot (y \rightarrow \bar{z})};$$

$$11) A = ((x \vee y) \cdot \bar{z} \rightarrow ((x \leftrightarrow \bar{z}) \oplus \bar{y})) \cdot ((x \oplus y) \cdot \bar{z}), B = (x \rightarrow y \cdot z) \cdot \overline{x \rightarrow y};$$

$$12) A = \overline{((x \leftrightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z))} \vee (x \oplus \bar{y} \cdot z), B = x \leftrightarrow (z \rightarrow y);$$

$$13) A = \overline{(x \downarrow y) \vee (x \leftrightarrow z)} | (x \oplus y \cdot z), B = \bar{x} \cdot y \cdot z \vee \overline{x \rightarrow z};$$

$$14) A = x \rightarrow ((y \rightarrow z) \rightarrow y \cdot z), B = (x \vee (x \cdot y \rightarrow z)) \cdot (x \oplus y \cdot z);$$

$$15) A = \overline{((x \vee y) \rightarrow y \cdot z) \vee (y \rightarrow x \cdot z)} \vee (x \rightarrow (\bar{y} \rightarrow z)), B = (x \rightarrow y) \vee z.$$

$$\text{Yechim: 15)} A = \overline{((x \vee y) \rightarrow y \cdot z) \vee (y \rightarrow x \cdot z)} \vee (x \rightarrow (\bar{y} \rightarrow z)) =$$

$$= \overline{((x \vee y)' \vee y \cdot z) \vee (y' \vee x \cdot z)} \vee (x' \vee (y \vee z)) =$$

$$= (x \vee y)(y' \vee z')y(x' \vee z') \vee x' \vee y \vee z =$$

$$= (x \vee y)z'y(x' \vee z') \vee x' \vee y \vee z =$$

$$= (xz'y \vee z'y)(x' \vee z') \vee x' \vee y \vee z =$$

$$= xz'y \vee z'yx' \vee z'y \vee x' \vee y \vee z = x' \vee y \vee z.$$

$$B = (x \rightarrow y) \vee z = x' \vee y \vee z \quad A \text{ va } B \text{ formulalar ekvivalent}$$

**3.1.19.** Barcha muhim va soxta argumentlarni aniqlang:

$$1) f(\tilde{x}^3) = (10101010);$$

$$2) f(\tilde{x}^3) = (10011001);$$

$$3) f(\tilde{x}^3) = (00111100);$$

$$4) f(\tilde{x}^3) = (11110011);$$

$$5) f(\tilde{x}^4) = (0101111101 \ 011111);$$

$$6) f(\tilde{x}^4) = (1100110000 \ 110011);$$

$$7) f(\tilde{x}^4) = (1011010110 \ 110101);$$

$$8) f(\tilde{x}^2) = ((x_1 \vee x_2) \rightarrow x_1 \cdot x_2) \oplus (x_1 \rightarrow x_2) \cdot (x_2 \rightarrow x_1);$$

$$9) f(\tilde{x}^2) = (x_1 \cdot x_2 \oplus (x_1 \rightarrow x_2)) \rightarrow (x_1 \leftrightarrow x_1 \cdot x_2);$$

$$10) \quad f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \rightarrow \overline{x_2}) \oplus (x_2 \rightarrow \overline{x_3})) \oplus (x_2 \rightarrow x_3);$$

$$11) \quad f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \vee x_2 \cdot \overline{x_3})(x_2 \rightarrow x_1 \cdot x_3)) \rightarrow (x_1 \vee x_3);$$

$$12) \quad f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \downarrow (x_2 | x_3)) \downarrow (x_2 \downarrow (x_1 | x_3))) \downarrow (x_1 | x_2).$$

**Yechim: 4)** Berilgan  $f(\tilde{x}^3)$  funksiyaning qiymatlar jadvalini tuzamiz:

$x_1$	$x_2$	$x_3$	$f(\tilde{x}^3)$
0	0	0	1
0	0	1	1
0	1	0	1
0	1	1	1
1	0	0	0
1	0	1	0
1	1	0	1
1	1	1	1

Funksiya qabul qilgan qiymatlarini taqqoslab,  $x_3$  o'zgaruvchiga nisbatan qo'shni funksiyalar orasidagi quyidagi munosabatni ko'ramiz:

$$f(0,0,0)=f(0,0,1)=1,$$

$$f(0,1,0)=f(0,1,1)=1,$$

$$f(1,0,0)=f(1,0,1)=0,$$

$$f(1,1,0)=f(1,1,1)=1.$$

Bundan  $f(x_1, x_2, 1) = f(x_1, x_2, 0)$ .

Ya'ni,  $f$  funksiyasi uchun  $x_3$  argument soxta ekan.

Endi  $f(\tilde{x}^3)$  funksiyaga tengkuchli bo'lган  $g(\tilde{x}^2)$  funksiyani quramiz. Buning uchun qiymatlar jadvalidan  $x_3$  soxta argument ustunini va  $(x_1, x_2, 1)$  satrlarni o'chiramiz. Natijada quyidagi jadvalga ega bo'lamiciz:

$x_1$	$x_2$	$g(x_1, x_2)$
0	0	1
0	1	1
1	0	0
1	1	1

Funksiya qabul qilgan qiymatlarini taqqoslaymiz:  $g(1,0)=0$ ,  $g(1,1)=1$  hamda  $g(1,0)=0$  va  $g(0,0)=1$ . Bundan  $x_1, x_2$  ikkala o'zgaruvchi ham muhim ekanligi kelib chiqadi. ( $f(\tilde{x}^3) = x_1 \rightarrow x_2$ )

**3.1.20.** Quyidagi  $f$  funksiyalari uchun  $x_1$  argument soxta ekanligini ko'rsating:

- 1)  $f(\tilde{x}^2) = (x_2 \rightarrow x_1) \cdot (x_2 \downarrow x_1);$
- 2)  $f(\tilde{x}^2) = (x_1 \leftrightarrow x_2) \vee (x_1 | x_2);$
- 3)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \oplus x_2) \rightarrow x_3) \cdot (\overline{x_3 \rightarrow x_2});$
- 4)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \vee x_2 \cdot \overline{x_3}) \leftrightarrow (\overline{x_1} \rightarrow \overline{x_2} \cdot x_3))(x_2 \downarrow x_3)$
- 5)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \vee x_2 \vee \overline{x_3}) \rightarrow (x_1 x_2 | x_3)) \oplus (x_2 \rightarrow x_1) \cdot x_3.$

**Yechim:** 1)  $f(\tilde{x}^2) = (x_2 \rightarrow x_1) \cdot (x_2 \downarrow x_1) = (x_2' \vee x_1)(x_2 \vee x_1)' = (x_2' \vee x_1)(x_2' \vee x_1') = x_2' \vee (x_1 \cdot x_1') = x_2'.$

$f$  funksiyasini soddalashtirib,  $x_1$  argument soxta ekanligi aniqlandi.

**3.1.21.** Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi barcha bul funksiyalarini sanab o'ting:

- 1) 1 argumentli, 0 ni saqlovchi;
- 2) 1 argumentli, 1 ni saqlovchi;
- 3) 2 argumentli, 0 ni saqlovchi;
- 4) 2 argumentli, 1 ni saqlovchi;
- 5) 1 argumentli, ham 1 ni ham 0 ni saqlovchi;
- 6) 2 argumentli, ham 1 ni ham 0 ni saqlovchi;
- 7) 2 argumentli, 1 ni saqlovchi ammo 0 ni saqlamaydigan;
- 8) 2 argumentli, 0 ni saqlovchi ammo 1 ni saqlamaydigan;

**3.1.22.** Isbotlang:

- 1) 0 ni saqlovchi bul funksiyalar superpozisiyasidan hosil bo'lган funksiya yana 0 ni saqlovchi funksiya bo'ladi.
- 2) 1 ni saqlovchi bul funksiyalar superpozisiyasidan hosil bo'lган funksiya yana 1 ni saqlovchi funksiya bo'ladi.

**3.1.23.**  $n$  argumentli barcha bul funksiyalari orasida 1 ni saqlovchi funksiyalar soni 0 ni saqlovchi funksiyalar soniga tengligini isbotlang.

**3.1.24.** Amallarni implikasiya ( $\rightarrow$ ) va inkor ('amallari yordamida ifodalang:

- |   |  |
|---|--|
| 1) diz'yunksiya ( $\vee$ );             | 2) kon'yunksiya (.) implikasiya ( $\rightarrow$ ); |
| 3) ekvivalentlik ( $\leftrightarrow$ ); | 4) Jegalkin yig'ndisi (+);                         |
| 5) Sheffer shtrixi ( $\parallel$ );     | 6) Pirs strelrasi ( $\downarrow$ ).                |

### 3.2. Ikkilamchi funksiyalar. Ikkilamchilik prinstipi.

$f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyaga ikki taraflama bo'lgan funksiyani topish uchun  $f$  funksianing chinlik jadvalida hamma o'zgaruvchilarni ularning inkoriga almashtirib, simmetrik mos ravishda joyini o'zgartirish kerak.

$f^*(x_1, x_2, \dots, x_n) = \bar{f}(\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_n)$  funksiyaga  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksianing **ikki taraflama funksiyasi** deb aytildi.

$f(x_1, x_2, \dots, x_n) = f^*(x_1, x_2, \dots, x_n) = \bar{f}(\bar{x}_1, \bar{x}_2, \dots, \bar{x}_n)$  munosabat bajarilsa, u holda  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  ga  **$o'z-o'ziga ikki taraflama funksiya$**  deb aytildi.

**Misollar.** 1. Mulohazalar algebrasining asosiy elementar funksiyalariga ikki taraflama bo'lgan funksiyalarni toping.

1.  $f_1(x) = x$  ga ikki taraflama funksiya  $f_1^*(x) = x$  bo'ladi.
2.  $f_2(x) = \bar{x}$  ga ikki taraflama funksiya  $f_2^*(x) = \bar{\bar{x}}$  bo'ladi.
3.  $f_3(x, y) = xy$  ga ikki taraflama funksiya  $f_3^* = x \vee y$  bo'ladi.
4.  $f_4(x, y) = x \vee y$  ga ikki taraflama funksiya  $f_4^* = x \cdot y$  bo'ladi.
5.  $f_5(x, y) = x \rightarrow y$  ga ikki taraflama funksiya  $f_5^* = \overline{y \rightarrow x}$  bo'ladi.
6.  $f_6(x, y) = x \leftrightarrow y$  ga ikki taraflama funksiya  $f_6^* = \overline{x \leftrightarrow y}$  bo'ladi.
7.  $f_7=1$  ga  $f_7^*=0$  va  $f_8=0$  ga  $f_8^*=1$  bo'ladi.

2.  $f(x, y, z) = xy \vee yz \vee xz$  funksiyaning o'z-o'ziga ikki taraflama funksiya ekanligini isbot qiling.

$$\begin{aligned} f^*(x, y, z) &= \overline{\overline{x} \overline{y} \vee \overline{y} \overline{z} \vee \overline{x} \overline{z}} = \overline{\overline{x} \overline{y}} \wedge \overline{\overline{y} \overline{z}} \wedge \overline{\overline{x} \overline{z}} = (x \vee y) (y \vee z) (x \vee z) = \\ &= [(x \vee y) y \vee (x \vee y) z] (x \vee z) = [y \vee yz \vee xz] (x \vee z) = (y \vee xz) (x \vee z) = \\ &= xy \vee yz \vee x (x \vee z) z = xy \vee yz \vee xz. \end{aligned}$$

Demak,  $f(x, y, z) = f^*(x, y, z)$  ekanligi uchun  $f$  o'z-o'ziga ikki taraflama funksiyadir.

$n$  ta argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama funksiyalar soni  $2^{2^{n-1}}$  taga teng.

### Muammoli masala va topshiriqlar:

**3.2.1.**  $n$  ga shunday shart beringki, natijada  $R_n(x_1, x_2, \dots, x_n) = x_1 + x_2 + \dots + x_n$  o'z-o'ziga ikki taraflama bo'lgan funksiya bo'lsin.

**3.2.2.**  $n$  argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama bo'lgan funksiyalarning sonini toping.

**3.2.3.**  $f = (\bar{x} \vee \bar{y} \bar{z}) (\bar{x} \bar{y} \vee \bar{x} \bar{z})$  va  $\varphi = (\bar{x} \vee \bar{y}) \bar{z} \bar{t} \vee \bar{x} \bar{t}$  funksiyalarga ikki taraflama bo'lgan funksiyalarni toping.

**3.2.4.** Bir argumentli har bir bul funksiyasi uchun ikki taraflama bul funksiyasini toping.

**3.2.5.** Ikki argumentli har bir bul funksiyasi uchun ikki taraflama bul funksiyasini toping.

**Yechish:**  $g_0^*(x, y) = (g_0(x', y'))' = 0' = 1 = g_{15}(x, y);$

$g_1^*(x, y) = (g_1(x', y'))' = (x'y')' = x'' \vee y'' = x \vee y = g_7(x, y);$

$g_2^*(x, y) = (g_2(x', y'))' = ((x' \rightarrow y')')' = x'' \vee y' = y' \vee x = (y \rightarrow x) = g_{11}(x, y);$

$g_3^*(x, y) = (g_3(x', y'))' = (x')' = x = g_3(x, y);$

**3.2.6.** Quyidagi bul funksiyalari uchun ikki taraflama funksiyasini toping. Ularni MDNSH ko'rinishda ifodalang:

- 1)  $x'yz \vee xy'z' \vee xyz;$
- 2)  $x'yz \vee x'yz' \vee xy'z \vee xy'z';$
- 3)  $x(y + z) \vee ((x' \vee y \vee z) \rightarrow (x'yz));$
- 4)  $(z \rightarrow (x \vee y))' \vee x(y + z);$
- 5)  $xyz + xy + xz + z;$
- 6)  $x'y \vee (z \rightarrow x)';$
- 7)  $(z \rightarrow x')(x \rightarrow y);$
- 8)  $(x \rightarrow (z \rightarrow y)) (x \rightarrow (z \rightarrow y'));$
- 9)  $x'y'z \vee x'yz' \vee xy'z' \vee xy'z \vee xyz;$
- 10)  $x'y' \vee yz \vee y'z';$
- 11)  $(x' \rightarrow z)' \vee (x \rightarrow z)y'.$

**Yechim: 11)**  $f(x, y, z) = (x' \rightarrow z)' \vee (x \rightarrow z)y'$  deb belgilash kiritib,

$f(x, y, z)$  funksiyaga ikki taraflama funksiyani topamiz:

$$\begin{aligned}
f^*(x, y, z) &= (f(x', y', z'))' = ((x \rightarrow z')' \vee (x' \rightarrow z')y)' = \\
&= (x \rightarrow z')''((x' \rightarrow z')y)' = (x \rightarrow z')((x' \rightarrow z')' \vee y') = \\
&= (x' \vee z')((x \vee z')' \vee y') = (x' \vee y')(x'z \vee y') = \\
&= x'(x'z \vee y') \vee z'(x'z \vee y') = x'x'z \vee x'y' \vee z'x'z \vee z'y' = \\
&= x'y' \vee x'z \vee y'z'.
\end{aligned}$$

**3.2.7.** Quyidagi bul funksiyalari bir-biriga ikki taraflama funksiya ekanligini isbotlang:

- 1)  $xyz + yz + y + 1, xyz + xy + xz + x + y + 1;$
- 2)  $xy + xz + x + y + z, xy + xz + x;$
- 3)  $xyz + xy + z, xyz + xz + yz;$
- 4)  $xy + yz + x + y + z + 1, xy + yz + y + 1;$
- 5)  $xyz + xy + x + y, xyz + xz + yz + x + y + z + 1;$
- 6)  $xy + x + y + z + 1, xy + z;$
- 7)  $xyz + x + 1, xyz + xy + xz + yz + y + z;$

$$8) xy + yz + x + 1, \quad xy + yz + z + 1;$$

$$9) xyz + xy + xz + y + 1, \quad xyz + yz + x + y;$$

$$10) xyz + x + z, \quad xyz + xy + xz + yz + y;$$

$$11) yz + x + y, \quad yz + x + z.$$

**Yechim: 11)** Berilgan funksiyaga ikki taraflama funksiyani topamiz  
 $f(x, y, z) = yz + x + y$  va  $g(x, y, z) = yz + x + z$  deb olamiz:

$$\begin{aligned} f^*(x, y, z) &= (y'z' + x' + y')' = y'z' + x' + y' + 1 = \\ &= (y+1)(z+1) + (x+1) + (y+1) + 1 = yz + y + z + 1 + x + 1 + y + \\ &+ 1 + 1 = yz + x + z. \end{aligned}$$

Demak, bul funksiyalari bir-biriga ikki taraflama funksiya ekan.

**3.2.8.** Quyidagi bul funksiya ikki taraflama funksiyasining inkori bilan ustma-ust tushishini isbotlang:

$$1) x(y + z + 1) + yz;$$

$$2) x'yz' \vee xy'z;$$

$$3) x'yz' \vee x'yz \vee xy'z \vee xy'z;$$

$$4) (x + z)(y + 1) + xy + yz;$$

$$5) xy + xz + yz + x + y + z;$$

$$6) xyz \vee x'y'z';$$

$$7) xyz \vee xy'z \vee x'yz' \vee x'y'z'$$

$$8) ((x \vee y \vee z) \rightarrow yz) \vee xyz' \vee x'y'z;$$

$$9) (x + z + 1)y + xz + 1;$$

$$10) xy + xz + yz + x + 1;$$

$$11) xy + xz + yz + z.$$

**Yechim: 11)**  $f(x, y, z) = xy + xz + yz + z$ .  $f(x, y, z)$  funksiya ikki taraflama funksiyasini topamiz:

$$\begin{aligned} f^*(x, y, z) &= (x'y' + x'z' + y'z' + z')' = x'y' + x'z' + y'z' + z' + 1 = \\ &= (x+1)(y+1) + (x+1)(z+1) + (z+1) + z + 1 = \end{aligned}$$

$$=xy+x+y+1+xz+x+z+1+yz+y+z+1+z=xy+xz+yz+z+1=\\=(xy+xz+yz+z)'=f'(x, y, z).$$

Demak,  $f(x, y, z)$  funksiyaning inkori ikki taraflama funksiyaga teng kuchli ekanligi isbotlandi.  $f^*(x, y, z)=f'(x, y, z)$ .

**3.2.9.** Barcha ikki argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama bul funksiyalarini toping.

Ulardan nechtasi barcha argumentlarga bog'liq bo'ladi?

**3.2.10.** Quyidagi bul funksiyalari o'z-o'ziga ikki taraflama ekanligini isbotlang:

- 1)  $x(z \rightarrow y) \vee (y \rightarrow z)'$ ;
- 2)  $x'yz \vee xy'z \vee x'y'z \vee x'y'z'$ ;
- 3)  $xy \vee xz \vee yz$ ;
- 4)  $x'y \vee x'z' \vee yz'$ ;
- 5)  $xy + xz + yz + y + z$ ;
- 6)  $x'yz' \vee x'yz \vee xyz' \vee xyz$ ;
- 7)  $x'y'z \vee x'yz' \vee xy'z' \vee xyz$ ;
- 8)  $xz + (x + z)(y + 1)$ ;
- 9)  $(x \rightarrow y)'(z \rightarrow z) \vee (x \vee y)'(z \rightarrow z)$ ;
- 10)  $(x' \vee y \vee z)(x' \vee y \vee z')(x' \vee y' \vee z)(x' \vee y' \vee z')$ ;
- 11)  $xy' \vee xz' \vee y'z'$ .

**Yechim: 11)**  $f(x, y, z) = xy' \vee xz' \vee y'z'$ .

$$f^*(x, y, z) = (x'y \vee x'z \vee yz)' = (x \vee y')(x \vee z')(y' \vee z') = (x \vee y'z') \vee (y' \vee z') = xy' \vee xz' \vee y'z' \vee y'z' = xy' \vee xz' \vee y'z' = f(x, y, z).$$

**3.2.11.** Quyidagi bul funksiyalaridan qaysilari o'z-o'ziga ikki taraflama ekanligini aniqlang:

- 1)  $x'y' \vee x'z' \vee y'z'$ ;
- 2)  $x'yz \vee xy'z \vee xyz'$ ;
- 3)  $xy + xz + yz$ ;
- 4)  $(x' \vee z)y' \vee (x' \vee y)z' \vee x'yz$ ;

- 5)  $((x \rightarrow y) + 1)(z + 1) \vee xy'z;$   
 6)  $xyz' \vee xy'z \vee x'y'z \vee xyz;$   
 7)  $x'y'z \vee x'y'z \vee xy'z \vee xyz' \vee xyz;$   
 8)  $((x \vee y \vee z) \rightarrow x'y'z) \vee x(y + z + 1);$   
 9)  $xyz \vee x'y'z \vee xy'z \vee x'y'z;$   
 10)  $xyz' \vee xy'z' \vee x'y'z' \vee x'y'z';$   
 11)  $(x + 1)(y \rightarrow z)' \vee (x + y)z.$

**Yechim: 11)**  $f(x, y, z) = (x + 1)(y \rightarrow z)' \vee (x + y)z.$

$$\begin{aligned}
 f(x, y, z) &= (x + 1)(y \rightarrow z)' \vee (x + y)z = x'(y' \vee z) \vee (x \leftrightarrow y)'z = \\
 &= x'y'z \vee ((x' \vee y)(x \vee y'))'z = x'y'z \vee (xy' \vee x'y)z = x'y'z \vee xy'z \vee x'y'z. \\
 f^* &= (xy'z \vee x'y'z \vee xy'z)' = (x' \vee y \vee z')(x \vee y' \vee z)(x' \vee y \vee z) = \\
 &= (x' \vee y)(x \vee y' \vee z) = x'y' \vee x'z \vee xy \vee yz = x'y'z' \vee x'y'z \vee x'y'z \vee x'yz \vee xyz' \vee \\
 &\quad \vee xyz \vee xyz \vee x'y'z = x'y'z' \vee x'y'z \vee x'yz \vee xyz' \vee xyz.
 \end{aligned}$$

**3.2.12.** Funksiyalarning qiymatlar jadvali berilgan bo'lsa, ularga ikki taraflama funksiyalarning qiymatlarini toping:

x	y	z	1)	2)	3)	4)	5)	6)	7)	8)	9)	10)	11)
0	0	0	0	1	1	0	1	1	1	0	0	0	0
0	0	1	1	1	0	0	0	1	1	0	0	1	1
0	1	0	1	0	1	0	0	0	1	0	1	1	1
0	1	1	0	1	1	1	0	1	0	0	0	1	1
1	0	0	0	1	0	1	1	0	1	1	1	0	0
1	0	1	0	0	0	0	1	1	1	0	0	1	1
1	1	0	1	1	1	0	0	0	1	1	1	0	0
1	1	1	1	0	0	0	1	0	1	0	1	1	1

**Yechim: 11)**  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyaga ikki taraflama bo'lgan funksiyani topish uchun  $f$  funksiyaning chinlik jadvalida hamma o'zgaruvchilarni ularning inkoriga almashtirib, simmetrik mos ravishda joyini o'zgartirish kerak.

$f_{11}(01110101)$  funksiyaga ikki taraflama funksiya  $f_{11}^* = (01010001)$  ga teng.

**3.2.13.** 3.2.12 misolda berilgan funksiyalarning qaysi biri o'z-o'ziga ikki taraflama funksiya bo'lishini aniqlang:

**Yechim: 11)**  $f_{11}(01110101) \neq f_{11}^* = (01010001)$ . Demak, o'z-o'ziga ikki taraflama emas.

**3.2.14.** O'z-o'ziga ikki taraflama uch argumentli bul funksiyalar soni nechta?

Bunday funksiyalarni toping va nechtasi barcha argumentlariga bog'liq bo'ladi?

**3.2.15.** Asosiy tengkuchlilik va ikki taraflama funksiyaning ta'rifidan foydalanib,  $f$  funksiya  $g$  funksiyaga ikki taraflama yoki ikki taraflama emasligini aniqlang:

- 1)  $f = x \oplus y, g = x \leftrightarrow y;$
- 2)  $f = x | y, g = x \downarrow y;$
- 3)  $f = x \rightarrow y, g = \bar{x} \cdot y;$
- 4)  $f = x \cdot y \rightarrow z, g = \bar{x} \cdot \bar{y} \cdot z;$
- 5)  $f = (\bar{x} \rightarrow \bar{y}) \rightarrow (y \rightarrow x), g = (x \rightarrow y) \cdot (\bar{y} \rightarrow \bar{x});$
- 6)  $f = x \cdot y \vee z, g = x \cdot (y \vee z).$

**3.2.16.** Quyidagi bul funksiyalariga ikki taraflama funksiyani toping va uni soddalashtiring:

- 1)  $f = (x \vee y \vee z) \cdot (y \oplus z) \vee x \cdot y \cdot z;$
- 2)  $f = (x \vee (1 \rightarrow y)) \vee y \cdot \bar{z} \vee (x | \bar{y} \downarrow \bar{z});$
- 3)  $f = (x \downarrow y) \oplus ((x | y) \downarrow (\bar{x} \leftrightarrow y \cdot z));$
- 4)  $f = (\bar{x} \vee \bar{y} \vee (y \cdot \bar{z} \oplus 1)) \downarrow z;$
- 5)  $f = (x \cdot (y \cdot z \vee 0) \leftrightarrow (z \cdot 1 \vee \bar{x} \cdot y)) \vee \bar{y} \cdot z;$
- 6)  $f = (x \downarrow z) \oplus ((x \vee y) \leftrightarrow (\bar{x} \downarrow (y \vee \bar{z})));$

**3.2.17.** To'rt argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama funksiyalarga misol keltiring.

**3.2.18.**  $n$  argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama funksiyalar sonini toping.

**3.2.19.**  $n$  argumentli funksiyaning ikki taraflama funksiyasi uning inkoriga teng bo'lgan funksiyalar sonini toping. Ya'ni  $f$  uchun  $f^* = f'$ .

**3.2.20.**  $n$  argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama funksiyalardan barcha argumentlari muhim bo'lganlarining sonini toping.

**3.2.21.**  $n$  argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama funksiyalarning qiymatlar jadvalida 0 va 1 lar soni o'zaro teng bo'lishini isbotlang.

**3.2.22.**  $n$  argumentli o'z-o'ziga ikki taraflama funksiyalarda 0 ni saqlovchi funksiyalar va 1 ni saqlovchi funksiyalar soni o'zaro teng bo'lishini isbotlang.

### **3.3. Bul funksiyalarining o'zgaruvchilar bo'yicha yoyilmasi.**

#### **Mukammal diz'yunktiv normal shakl. Mukammal kon'yunktiv normal shakl.**

$f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyani  $x_1, x_2$  o'zgaruvchilari bo'yicha yoyilmasi quyidagicha:

$$f(x_1, x_2, \dots, x_n) = x_1 f(1, x_2, \dots, x_n) \vee \overline{x_1} f(0, x_2, \dots, x_n) = x_1 \{x_2 f(1, 1, x_3, \dots, x_n) \vee \\ \vee \overline{x_2} f(1, 0, x_3, \dots, x_n)\} \vee \overline{x_1} \{x_2 f(0, 1, x_3, \dots, x_n) \vee \overline{x_2} f(0, 0, x_3, \dots, x_n)\} =$$

| distributivlik qonunini qo'llab qavslarni ochamiz|

$$= x_1 x_2 f(1, 1, x_3, \dots, x_n) \vee x_1 \overline{x_2} f(1, 0, x_3, \dots, x_n) \vee \overline{x_1} x_2 f(0, 1, x_3, \dots, x_n) \vee \\ \vee \overline{x_1} \overline{x_2} f(0, 0, x_3, \dots, x_n). \quad x = x^1, \quad \overline{x} = x^0 \Rightarrow x^e - x \text{ ning } e-\text{darajasi deb},$$

$$f(x_1, x_2, \dots, x_n) = \bigvee_{e_1 e_2 \in E^2} x_1^{e_1} x_2^{e_2} f(e_1, e_2, x_3, \dots, x_n) \text{ natija olinadi.}$$

**Misol:**  $f(x, y, z) = (\overline{y} \leftrightarrow \overline{x} \overline{z}) \rightarrow yz \quad x, y \quad$  o'zgaruvchilari bo'yicha yoyilmasini toping. Yoyirma koeffisiyentlarini topamiz:

$$f(1, 1, z) = (\overline{1} \leftrightarrow \overline{1} \overline{z}) \rightarrow 1z = (0 \leftrightarrow \overline{z}) \rightarrow z = z \rightarrow z;$$

$$f(1,0,z) = (\bar{0} \leftrightarrow \bar{1}\bar{z}) \rightarrow 0z = (1 \leftrightarrow \bar{z}) \rightarrow 0 = \bar{z} \rightarrow 0 = z;$$

$$f(0,1,z) = (\bar{1} \leftrightarrow \bar{0}\bar{z}) \rightarrow 1z = (0 \leftrightarrow 0) \rightarrow z = 1 \rightarrow z = z;$$

$$f(0,0,z) = (\bar{0} \leftrightarrow \bar{0}\bar{z}) \rightarrow 0z = (1 \leftrightarrow 0) \rightarrow 0 = 1.$$

Yoyilma koeffisiyentlarini formulaga qo'yamiz:

$$f(x,y,z) = (\bar{y} \leftrightarrow \bar{x}\bar{z}) \rightarrow yz = xyf(1,1,z) \vee x\bar{y}f(1,0,z) \vee \bar{x}yf(0,1,z) \vee \\ \vee \bar{x}\bar{y}f(0,0,z) = xy(z \rightarrow z) \vee x\bar{y}z \vee \bar{x}yz \vee \bar{x}\bar{y}.$$

$f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyani  $k$  ta ( $k \leq n$ ) o'zgaruvchilari bo'yicha yoyilmasi

quyidagicha:

$$f(x_1, x_2, \dots, x_n) = \bigvee_{e_1 e_2 \dots e_k \in E^k} x_1^{e_1} x_2^{e_2} \dots x_n^{e_k} f(e_1, e_2, \dots, e_k, x_{k+1}, \dots, x_n).$$

$$f(x_1, x_2, \dots, x_n) = \bigvee_{e_1 e_2 \dots e_n \in E^n} x_1^{e_1} x_2^{e_2} \dots x_n^{e_n} - \text{Mukammal diz'yunktiv normal}$$

**shakl. (MDNSh)**

$$f(x_1, x_2, \dots, x_n) = \bigwedge_{e_1 e_2 \dots e_n \in E^n} (x_1^{e_1} \vee x_2^{e_2} \vee \dots \vee x_n^{e_n}) - \text{Mukammal}$$

**kon'yunktiv normal shakl. (MKNSh)**

### Muammoli masala va topshiriqlar:

**3.3.1.** Berilgan bul funksiyalarini a)  $x_1$  o'zgaruvchisi bo'yicha yoyilmasini toping;

b)  $x_1, x_2$  o'zgaruvchilari bo'yicha yoyilmasini toping:

$$1) \quad f(\tilde{x}^2) = (x_2 \rightarrow x_1) \cdot (x_1 \downarrow x_2);$$

$$2) \quad f(\tilde{x}^2) = (x_1 \leftrightarrow x_2) \vee (x_1 | x_2);$$

$$3) \quad f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \oplus x_2) \rightarrow x_3) \cdot \overline{(x_3 \rightarrow x_2)};$$

- 4)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \vee x_2 \cdot \bar{x}_3) \leftrightarrow (\bar{x}_1 \rightarrow \bar{x}_2 \cdot x_3))(x_2 \downarrow x_3)$
- 5)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \vee x_2 \vee \bar{x}_3) \rightarrow (x_1 x_2 | x_3)) \oplus (x_2 \rightarrow x_1) \cdot x_3;$
- 6)  $A = (\bar{x} \vee y \cdot \bar{z}) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow ((y \vee z) \rightarrow \bar{x}));$
- 7)  $A = (x | \bar{y}) \rightarrow ((y \downarrow \bar{z}) \rightarrow (x \oplus z));$
- 8)  $A = (x \cdot \bar{y} \vee \bar{x} \cdot z) \oplus ((y \rightarrow z) \rightarrow \bar{x} \cdot y);$
- 9)  $A = (\bar{x} \vee y) \rightarrow ((y | \bar{z}) \rightarrow (x \leftrightarrow x \cdot z));$
- 10)  $A = x \rightarrow ((\bar{x} \cdot \bar{y} \rightarrow (\bar{x} \cdot \bar{z} \rightarrow y)) \rightarrow y) \cdot z;$
- 11)  $B = (x \rightarrow y \cdot z) \cdot \overline{x \rightarrow y}.$

**3.3.2.** Berilgan bul funksiyalarini MDNSh ga keltirib, ikki taraflama funksiyasini toping:

- 1)  $f = (x \vee y \vee z) \cdot (y \oplus z) \vee x \cdot y \cdot z;$
- 2)  $f = (x \vee (1 \rightarrow y)) \vee y \cdot \bar{z} \vee (\bar{x} | \overline{y \downarrow z});$
- 3)  $f = (x \downarrow y) \oplus ((x | y) \downarrow (\bar{x} \leftrightarrow y \cdot z));$
- 4)  $f = (\bar{x} \vee \bar{y} \vee (y \cdot \bar{z} \oplus 1)) \downarrow z;$
- 5)  $f = (x \cdot (y \cdot z \vee 0) \leftrightarrow (z \cdot 1 \vee \bar{x} \cdot y)) \vee \bar{y} \cdot z;$
- 6)  $f = (x \downarrow z) \oplus ((x \vee y) \leftrightarrow (\bar{x} \downarrow (y \vee \bar{z})));$
- 7)  $A = \overline{\bar{x} \oplus y \cdot z} \cdot \overline{\bar{y} \rightarrow x \cdot z} \cdot (\bar{x} \downarrow y);$
- 8)  $A = (x \oplus y \cdot z) \rightarrow (\bar{x} \rightarrow (y \rightarrow z));$
- 9)  $A = ((x \rightarrow y \cdot z) \oplus (x \leftrightarrow y)) \vee (y \rightarrow x \cdot z);$
- 10)  $A = ((x | y) \downarrow (y | \bar{z})) \cdot (x \rightarrow (y \rightarrow z)).$
- 11)  $A = (x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow x.$

**3.3.3.** Berilgan bul funksiyalarini MKNSh ga keltirib, ikki taraflama funksiyasini toping:

- 1)  $f(\tilde{x}^3) = \overline{x_1} \cdot \overline{x_2} \vee \overline{x_2} \cdot x_3 \vee (x_1 \rightarrow x_2 \cdot x_3);$
- 2)  $f(\tilde{x}^3) = (x_1 \leftrightarrow \overline{x_2}) \vee (x_1 \cdot x_3 \oplus (x_2 \rightarrow x_3));$
- 3)  $f(\tilde{x}^3) = (x_1 \cdot x_2 \oplus x_3) \cdot (x_1 \cdot x_3 \rightarrow x_2);$
- 4)  $f(\tilde{x}^3) = (\overline{x_1} \vee \overline{x_2} \vee \overline{x_3}) \cdot (x_1 \cdot x_2 \vee x_3);$
- 5)  $f(\tilde{x}^3) = (x_1 \rightarrow x_2) \oplus (x_1 \mid x_2 \cdot x_3);$
- 6)  $A = (\overline{x} \rightarrow (\overline{y} \rightarrow (x \leftrightarrow z))) \cdot (x \leftrightarrow (y \rightarrow (z \vee (x \rightarrow y)))),$
- 7)  $A = ((x \vee y) \cdot \overline{z} \rightarrow ((x \leftrightarrow \overline{z}) \oplus \overline{y})) \cdot ((x \oplus y) \cdot \overline{z});$
- 8)  $A = \overline{((x \leftrightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z))} \vee (x \oplus \overline{y} \cdot z);$
- 9)  $A = \overline{(x \downarrow y) \vee (x \leftrightarrow z)} \mid (x \oplus y \cdot z);$
- 10)  $A = x \rightarrow ((y \rightarrow z) \rightarrow y \cdot z);$
- 11)  $f(\tilde{x}^3) = (\overline{x_1} \cdot x_2 \rightarrow x_3) \cdot ((x_1 \rightarrow x_3) \rightarrow x_2).$

**3.3.4.** Berilgan bul funksiyalarining MKNSh va MDNSh ni toping.

- 1)  $f(\tilde{x}^3) = (10101010);$     2)  $f(\tilde{x}^3) = (10011001);$
- 3)  $f(\tilde{x}^3) = (00111100);$     4)  $f(\tilde{x}^4) = (010111101 011111);$
- 5)  $f(\tilde{x}^4) = (1100110000 110011);$  6)  $f(\tilde{x}^4) = (1011010 110110101);$
- 7)  $f(\tilde{x}^2) = ((x_1 \vee x_2) \rightarrow x_1 \cdot x_2) \oplus (x_1 \rightarrow x_2) \cdot (x_2 \rightarrow x_1);$
- 8)  $f(\tilde{x}^2) = (x_1 \cdot x_2 \oplus (x_1 \rightarrow x_2)) \rightarrow (x_1 \leftrightarrow x_1 \cdot x_2);$
- 9)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \rightarrow \overline{x_2}) \oplus (x_2 \rightarrow \overline{x_3})) \oplus (x_2 \rightarrow x_3);$
- 10)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \vee x_2 \cdot \overline{x_3})(x_2 \rightarrow x_1 \cdot x_3)) \rightarrow (x_1 \vee x_3);$
- 11)  $f(\tilde{x}^3) = ((x_1 \downarrow (x_2 \mid x_3)) \downarrow (x_2 \downarrow (x_1 \mid x_3))) \downarrow (x_1 \mid x_2).$

**3.3.5.** Berilgan diz'yunktiv normal shakldagi funksiyalarni mukammal diz'yunktiv normal shaklga keltiring:

- 1)  $f(\tilde{x}^3) = \overline{x_1} \cdot x_2 \vee \overline{x_3};$
- 2)  $f(\tilde{x}^3) = \overline{x_1} \cdot \overline{x_2} \vee x_2 \cdot \overline{x_3} \vee x_1 \cdot \overline{x_3};$
- 3)  $f(\tilde{x}^3) = x_1 \cdot x_2 \cdot \overline{x_3} \vee \overline{x_1} \cdot x_2 \vee \overline{x_3};$
- 4)  $f(\tilde{x}^3) = \overline{x_1} \cdot \overline{x_2} \vee x_1 \cdot x_2 \cdot \overline{x_3} \vee \overline{x_3};$
- 5)  $f(\tilde{x}^3) = x_1 \vee x_2 \cdot x_3 \vee \overline{x_2} \cdot \overline{x_3}.$

**3.3.6.** Berilgan kon'yunktiv normal shakldagi funksiyalarni mukammal kon'yunktiv normal shaklga keltiring:

- 1)  $f(\tilde{x}^3) = \overline{x_1} \cdot (\overline{x_2} \vee x_2);$
- 2)  $f(\tilde{x}^3) = (x_1 \vee x_2) \cdot (\overline{x_2} \vee x_3) \cdot \overline{x_3};$
- 3)  $f(\tilde{x}^3) = (\overline{x_1} \vee \overline{x_2} \vee x_3) \cdot (\overline{x_1} \vee \overline{x_3}) \cdot (\overline{x_2} \vee x_3);$
- 4)  $f(\tilde{x}^3) = (\overline{x_1} \vee x_2 \vee \overline{x_3}) \cdot (\overline{x_2} \vee x_3);$
- 5)  $f(\tilde{x}^3) = (\overline{x_1} \vee x_2) \cdot (x_1 \vee \overline{x_3}) \cdot (x_2 \vee x_3).$

**3.3.7.** 3.3.5. misolda berilgan diz'yunktiv normal shakldagi funksiyalarni mukammal kon'yunktiv normal shaklga keltiring.

**3.3.8.** 3.3.6. misolda berilgan kon'yunktiv normal shakldagi funksiyalarni mukammal diz'yunktiv normal shaklga keltiring.

**3.3.9.** 3.3.5. misolda berilgan diz'yunktiv normal shakldagi funksiyalarni  $x_1, x_2$  o'zgaruvchilari bo'yicha yoyilmasini toping.

**3.3.10.** 3.3.6. misolda berilgan kon'yunktiv normal shakldagi funksiyalarni  $x_1, x_2$  o'zgaruvchilari bo'yicha yoyilmasini toping.

### **3.4. Jegalkin ko'phadi. Funksiyalar sistemasining to'liqligi va yopiqligi.**

#### **Muhim yopiq sinflar.**

$x + \overline{y} = x \leftrightarrow y$ . Mantiq algebrasidagi ko'paytma va 2 moduli bo'yicha qo'shish mantiq amallari uchun kommutativ, assostiativ va distributiv arifmetik qonunlar o'z kuchini saqlaydi.

Bul algebrasidagi asosiy mantiqiy amallarni kiritilgan arifmetik amallar orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$1. \bar{x} = x + 1; \quad 2. x \wedge y = xy; \quad 3. x \vee y = xy + x + y;$$

$$4. x \rightarrow y = xy + x + 1; \quad 5. x \leftrightarrow y = x + y + 1.$$

2 moduli bo'yicha qo'shish amalining ta'rifiiga asosan  $x + x = 0$  va  $xx = x$  ( $x^n = x$ ).

$\sum x_{i_1} x_{i_2} \dots x_{i_k} + a$  ko'rinishidagi ko'phad - **Jegalkin ko'phadi**

$x_{i_1} + x_{i_2} + \dots + x_{i_k} + a$  ko'rinishidagi funksiya - **chiziqli funksiya**

$n$  argumentli **chiziqli funksiyalar soni**  $2^{n+1}$  ga teng va bir argumentli funksiyalar doimo chiziqli funksiya bo'ladi.

$0 < 1$  munosabati orqali  $\{0,1\}$  to'plamini tartiblashtiramiz.  $\alpha = (\alpha_1, \dots, \alpha_n)$  va  $\beta = (\beta_1, \dots, \beta_n)$  qiymatlar satri bo'lsin.  $\alpha$  qiymatlar satri  $\beta$  qiymatlar satridan shunda va faqat shundagina oldin keladi deb aytamiz, qachon  $\alpha \prec \beta$  yoki  $\alpha$  va  $\beta$  qiymatlar satri ustma-ust tushsa, u holda  $\alpha \prec \beta$  shaklida yozamiz.

$\alpha = (\alpha_1, \dots, \alpha_n)$  va  $\beta = (\beta_1, \dots, \beta_n)$  ixtiyoriy qiymatlar satri bo'lsin.  $\alpha \prec \beta$  dan  $f(\alpha_1, \dots, \alpha_n) \leq f(\beta_1, \dots, \beta_n)$  bajarilishi kelib chiqsa, u holda  $f(x_1, \dots, x_n)$  funksiya **monoton funksiya** deb aytildi.

$\alpha \prec \beta$  dan  $f(\alpha_1, \dots, \alpha_n) > f(\beta_1, \dots, \beta_n)$  munosabat kelib chiqsa, u holda  $f(x_1, \dots, x_n)$  **nomonoton funksiya** deb aytildi.

Asosiy elementar mantiqiy funksiyalardan  $0, 1, x, xy, x \vee y$  funkstiyalar monoton funkstiyalar bo'lib,  $\bar{x}, x \rightarrow y, x \leftrightarrow y, x + y$  funksiyalar nomonoton funkstiyalardir.

Monoton funkstiyalarning superpozitsiyasidan hosil qilingan funksiya yana **monoton funksiya** bo'ladi.

Agar mantiq algebrasining istalgan funksiyasini  $\Phi = \{\varphi_1, \dots, \varphi_n\}$  sistemadagi funksiyalar superpozistiyasi orqali ifodalash mumkin bo'lsa, u holda F ga ***to'liq funksiyalar sistemasi*** deb aytildi.

Istalgan funksiyani MKNSh yoki MDNSh ko'rinishida ifodalash mumkinligidan  $\{xy, x \vee y, \bar{x}\}$  funksiyalar sistemasining to'liqligi kelib chiqadi.  $\{xy, x + y, 1\}$  funksiyalar sistemasi ham to'liq bo'ladi, chunki istalgan funksiyani Jegalkin ko'phadi ko'rinishiga keltirish mumkin.

**Misol.** Ushbi funksiyani Jegalkin ko'phadi ko'rinishida ifodalang:

$$F(x_1, x_2, x_3) = (x_1 | x_2) + (x_1 \wedge x_3)$$

**Yechish:** Berilgan funksiya uchun noma'lum koeffisientli ko'phad ko'rinishidagi ifodasini izlaymiz:

$$\begin{aligned} F(x_1, x_2, x_3) &= (x_1 | x_2) + (x_1 \wedge x_3) = a \cdot x_1 x_2 x_3 + b \cdot x_1 x_2 + c \cdot x_1 x_3 + \\ &+ d \cdot x_2 x_3 + e \cdot x_1 + f \cdot x_2 + g \cdot x_3 + h \end{aligned}$$

Funksianing qiymatlar jadvalida noma'lum koeffisientlarni aniqlaymiz:

$x_1$	$x_2$	$x_3$	$(x_1   x_2) + (x_1 \wedge x_3)$	$a \cdot x_1 x_2 x_3 + b \cdot x_1 x_2 + c \cdot x_1 x_3 +$ $+ d \cdot x_2 x_3 + e \cdot x_1 + f \cdot x_2 + g \cdot x_3 + h$	
0	0	0	1	$h$	$h=1$
0	0	1	1	$g+h$	$g=0$
0	1	0	1	$f+h$	$f=0$
0	1	1	1	$d+f+g+h$	$d=0$
1	0	0	1	$e+h$	$e=0$
1	0	1	0	$c+e+g+h$	$c=1$
1	1	0	0	$b+e+f+h$	$b=1$
1	1	1	1	$a+b+c+d+e+f+g+h$	$a=0$

Jadvalning 4 va 5- ustunlarini tenglashtirishdan hosil bo'lgan tenglamalar (noma'lum koeffisientlarga nisbatan) sistemasini yechib, 6- ustunni hosil qilamiz. Demak,  $F(x_1, x_2, x_3) = (x_1 | x_2) + (x_1 \wedge x_3) = x_1 x_2 + x_1 x_3 + 1$

**Misol.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liqligini isbotlang:

$$a) xy, \bar{x}; \quad b) x \vee y, \bar{x}; \quad v) xy, x+y, 1;$$

$$g) \overline{x \vee y}; \quad d) \overline{\bar{x}y}; \quad i) x+y, x \vee y, 1;$$

$$j) x+y+z, xy, 0, 1; \quad z) x \rightarrow y, \bar{x}; \quad e) x \rightarrow y, 0.$$

**Isbot.** a).  $x \vee y = \overline{\overline{x}y}$ , ya'ni diz'yunkstiya amalini kon'yunkstiya va inkor amallari orqali ifodalash mumkin. Demak,  $\{xy, \bar{x}\}$  funksiyalar sistemasi to'liq bo'ladi.

b)  $xy = \overline{x}y = \overline{x \vee y}$  ekanligi ma'lum. Demak, istalgan mantiqiy funksiyani diz'yunkstiya va inkor amallari orqali ifodalasa bo'ladi. Shuning uchun  $\{x \vee y, \bar{x}\}$  funksiyalar sistemasi to'liqdir.

v) Ixtiyoriy mantiq algebrasining funksiyasini yagona Jegalkin ko'phadi ko'rinishiga keltirish mumkinligidan  $\{xy, x+y, 1\}$  funksiyalar sistemasining to'liqligi kelib chiqadi.

g) va d). Mantiq algebrasidagi istalgan funksiyani  $\psi(x, y) = \overline{\bar{x}y}$  va  $\varphi(x, y) = \overline{x \vee y}$  Sheffer funksiyalari orqali ifodalash mumkin. Haqiqatan ham,  $\overline{\bar{x}} = \varphi(x, x)$

$x \vee y = \overline{\overline{x} \vee \overline{y}} = \overline{\overline{x} \vee \overline{\varphi(x, y)}} = \varphi(\varphi(x, y), \varphi(x, y))$   $xy = \varphi(\overline{\bar{x}}, \overline{\bar{y}}) = \varphi(\varphi(x, x), \varphi(y, y))$  asosiy mantiqiy amallarni Sheffer funksiyasi orqali ifodalash mumkin. Demak,  $\{\overline{\bar{x}y}\}$  va  $\{\overline{x \vee y}\}$  funksiyalar sistemasi to'liq bo'ladi.

i).  $x \vee y = xy + x + y$  bo'lganligi uchun  $x \vee y + (x + y) = xy$  bo'ladi.

{ $xy, x + y, 1$ } to'liq sistema ekanligi v) punktida isbot qilingan edi, demak, { $x + y, x \vee y, 1$ } sistema to'liqdir.

**Misol.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liq emasligini isbotlaylik:

a)  $\bar{x}, 1$ ; b)  $xy, x \vee y$ ; v)  $x + y, \bar{x}$ ; g)  $xy \vee yz \vee xz, \bar{x}$ ;

d)  $xy \vee yz \vee xz, 0, 1$ .

a).  $\bar{x} = x + 1$  ga teng. Demak, { $\bar{x}, 1$ } sistemasidagi funksiyalar bir argumentli funksiyalar bo'ladi. Bizga ma'lumki, bir argumentli funksiyalarning superpozistiyasi natijasida hosil qilingan funksiya yana bir argumentli funksiya bo'ladi. Natijada, bu sistemadagi funksiyalar orqali ko'p argumentli funksiyalarni ifodalab bo'lmaydi. Shuning uchun { $\bar{x}, 1$ } to'liq sistema emas.

b). { $xy, x \vee y$ } sistemasidagi funksiyalarning ikkalasi ham monotondir. Monoton funksiyalarning superpozistiyasi orqali hosil qilingan funksiya yana monoton bo'lishini isbot qilgan edik. Demak, bu ikkala funksianing superpozistiyasi orqali monoton bo'lмаган funksiyalarni ifodalash mumkin emas va natijada, { $xy, x \vee y$ } sistema to'liqmas sistema bo'ladi.

v). { $x + y, \bar{x}$ } cistemasiagi funksiyalar chiziqli funksiyalardir. Shuning uchun bu funksiyalar orqali chiziqlimas funksiyalarni ifodalab bo'lmaydi. Demak, { $x + y, \bar{x}$ } funksiyalar sistemasi to'liq emas.

g). { $xy \vee yz \vee xz, \bar{x}$ } sistemasidagi funksiyalar o'z-o'ziga ikkitaraflama funksiyalardir. Bu funksiyalarning superpozistiyasidan hosil qilingan har qanday funksiya ham o'z-o'ziga ikkitaraflama funksiya bo'ladi.

Demak, { $xy \vee yz \vee xz, \bar{x}$ } funksiyalar sistemasi to'liq emas.

d).  $\{ xy \vee yz \vee xz, 0, 1 \}$  sistemadagi funksiyalarning hammasi monoton funksiyalar bo'ladi. Monoton emas funksiyalar bu sistemadagi funksiyalar orqali ifodalanmaydi. Demak,  $\{ xy \vee yz \vee xz, 0, 1 \}$  sistema to'liq emas.

Funkstional yopiq sinflarga misollar:

- 1) bir argumentli funksiyalar;
- 2) hamma mantiq algebrasining funksiyalari;
- 3)  $L$  - chiziqli funksiyalar;
- 4)  $S$  - o'z-o'ziga ikkitaraflama funksiyalar;
- 5)  $M$  - monoton funksiyalar;
- 6)  $P_0$  - nol qiymatni saqlovchi funksiyalar;
- 7)  $P_1$  - bir qiymatni saqlovchi funksiyalar.

maksimal funkstional yopiq sinflar:  $P_0$  - nol saqlovchi funksiyalar sinfi,  $P_1$  - bir saqlovchi funksiyalar sinfi,  $M$  - monoton funksiyalar sinfi,  $S$  - o'z-o'ziga ikkitaraflama funksiyalar sinfi,  $L$  - chiziqli funksiyalar sinfi.

### **Muammoli masala va topshiriqlar:**

**3.4.1.** 1)  $x \rightarrow y \leftrightarrow z$ ; 2)  $x \vee y \vee z \vee t$ ; 3)  $x \leftrightarrow y \leftrightarrow z$  4)  $x \vee y \vee z$ ;  
 5)  $xy \vee yz \vee xz$ ; 6)  $xy\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee \bar{x}yz \vee \bar{x}\bar{y}\bar{z}$  formulalarni Jegalkin ko'phadi ko'rinishiga keltiring.

**3.4.2.** Funksianing Jegalkin ko'phadi ko'rinishidagi ifodasi yagona ekanligini isbotlang.

**3.4.3.** Chiziqli funksiyalarning qaysi birlari o'z-o'ziga ikkitaraflama funksiya bo'ladi?

**3.4.4.**  $xy \vee xz \vee yz = xy + xz + yz$  ekanligini isbot eting.

**3.4.5.** Jegalkin ko'phadi ko'rinishidagi funksianing hamma argumentlari soxta argumentlar emasligini isbotlang.

**3.4.6** Quyidagi bul funksiyalariga teng kuchli bo'lgan Jegalkin ko'pxadini noma'lum koeffisientli ko'phad usuli bilan toping:

- 1)  $x'(yz' \vee y'z)$ ;
- 2)  $(x \rightarrow (y \rightarrow z'))(yz' \rightarrow x)$ ;
- 3)  $(x+1)(y+1)z' \vee yz$ ;
- 4)  $x'z' \vee (x'y \vee xy')z$ ;
- 5)  $x'y'z \vee xz'$ ;
- 6)  $(x' \vee y \vee z)(x \vee y \vee z')(x' \vee y' \vee z')$ ;
- 7)  $x(y \rightarrow z) \vee (x'y \vee xy')(z+1)$ ;
- 8)  $x' \vee y \vee z'$ ;
- 9)  $x'y'z' \vee x'yz' \vee x'yz \vee xy'z \vee xyz'$ ;
- 10)  $xz \vee (x+z)y \vee x'z'$ ;
- 11)  $x'z' \vee (x'z \vee xz')y \vee xy'z'$ .

**3.4.7.** Tenglikning o'ng va chap tomoni Jegalkin ko'phadi ko'rinishiga keltirib, quyidagilarning to'g'rilarini aniqlang:

- 1)  $x \rightarrow (y \rightarrow z) = (x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z)$ ;
- 2)  $(xy \rightarrow z) \rightarrow (x \rightarrow z) = x'y'z$ ;
- 3)  $xy \rightarrow z = (x \rightarrow z)(y \rightarrow z)$ ;
- 4)  $(x \leftrightarrow y)(xy' \vee y) = xy$ ;
- 5)  $(x \leftrightarrow y')' = x \leftrightarrow y$ ;
- 6)  $z \rightarrow (x \vee y) = (z \rightarrow x) \rightarrow (x \rightarrow y)$ ;
- 7)  $x \leftrightarrow y = (xz \leftrightarrow yz)((x \vee z) \leftrightarrow (y \vee z))$ ;
- 8)  $xy \vee (z \rightarrow x) = x' \rightarrow z'$ ,
- 9)  $((x \rightarrow z)(y \rightarrow z)) = ((x \vee y) \rightarrow z)$ ;
- 10)  $x \leftrightarrow y = xy \vee x'y'$ ;
- 11)  $(x \rightarrow y) \rightarrow z = x \rightarrow (y \rightarrow z)$ .

**3.4.8.** Quyidagi bul funksiyalarini Jegalkin ko'phadi ko'rinishini topib, qaysi biri aynan chin -1, yoki aynan yolg'onligini -0 aniqlang:

- 1)  $(y \rightarrow z) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z))$ ;
- 2)  $x \rightarrow (x' \rightarrow y)$ ;
- 3)  $(x \rightarrow y) \rightarrow ((x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow (x \rightarrow z))$ ;
- 4)  $((x \rightarrow y) \rightarrow x) \rightarrow x$ ;
- 5)  $(x \rightarrow (y \rightarrow x)) \rightarrow ((y' \rightarrow x')'(x \rightarrow y))$ ;
- 6)  $(x \rightarrow yz) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z))$ ;
- 7)  $x' \rightarrow (x \rightarrow y)$ ;

- 8)  $(x \rightarrow (y \rightarrow z))(x \rightarrow y)(x \rightarrow z)';$
- 9)  $((x \rightarrow y) \rightarrow (y' \rightarrow x')) \rightarrow ((y' \rightarrow x') \rightarrow (x \rightarrow y));$
- 10)  $(x' \vee (y \rightarrow x))';$
- 11)  $(x \vee y)' \vee x'y \vee x.$

**3.4.9.** Bir argumentli har bir bul funksiyasi chiziqli bo'lishini tekshiring.

**3.4.10.** Barcha ikki argumentli chiziqli bul funksiyalarini toping.

**3.4.11.**  $n$  argumentli chiziqli bul funksiyalari soni  $2^{n+1}$  ta ekanligini isbotlang.

**3.4.12.** Quyidagi barcha bul funksiyalari chiziqli ekanligini isbotlang:

- 1)  $x'y'z' \vee xy'z' \vee x'yz \vee xyz;$
- 2)  $((x \vee y \vee z) \rightarrow xyz') \vee (x+y)z;$
- 3)  $(x'y \vee xy')z' \vee (x+y)z;$
- 4)  $(x+y)z \vee (x'y' \vee xy)z;$
- 5)  $x'yz \vee (x+z+1)y' \vee xyz';$
- 6)  $((x' \vee y \vee z) \rightarrow xy'z') \vee (x'z \vee xz')y;$
- 7)  $x'yz' \vee x'yz \vee xyz' \vee xyz;$
- 8)  $x'(y'z \vee yz') \vee (y+z)x;$
- 9)  $(x \vee y' \vee z)(x \vee y' \vee z')(x' \vee y' \vee z)(x' \vee y' \vee z')$
- 10)  $xyz' \vee (x' \vee y \vee z) \rightarrow xyz) \vee x'y'z;$
- 11)  $xyz \vee xy'z \vee x'yz' \vee x'y'z'.$

**Yechim: 11)**  $xyz \vee xy'z \vee x'yz' \vee x'y'z' = xz(y \vee y') \vee x'z' \vee (y \vee y') = xz \vee x'z' = xz \vee (x+1)(z+1) = xz \vee (xz + x + z + 1) = xz(xz + x + z + 1) + xz + xz + x + z + 1 = xz + xz + xz + xz + x + z + 1 = x + z + 1.$

**3.4.13.** Berilgan funksiyalardan qaysi chiziqli ekanligini tekshiring:

- 1)  $x'y'z' \vee x'y'z \vee x'yz \vee xyz';$
- 2)  $x'y'z' \vee x'yz' \vee xyz' \vee xyz;$
- 3)  $(x \vee y \vee z')(x \vee y' \vee z')(x' \vee y \vee z')(x' \vee y' \vee z);$
- 4)  $(xy \rightarrow z)' \vee (x' \vee y')(x \vee y)z;$

- 5)  $x'(y + z) \vee ((x \vee y \vee z) \rightarrow x'yz);$   
 6)  $x' \rightarrow (y \vee z');$   
 7)  $xyz \vee xyz' \vee xy'z;$   
 8)  $((x' \rightarrow y)' \rightarrow z)';$   
 9)  $x'(yz' \vee y'z) \vee (y+z+1)x;$   
 10)  $(yz' + x) \rightarrow (x \leftrightarrow xy')';$   
 11)  $((x \vee y \vee z) \rightarrow xy'z) \vee (x'z \vee xz')y \vee xy'z'.$

**Yechish:11)**  $((x \vee y \vee z) \rightarrow xy'z) \vee (x'z \vee xz')y \vee xy'z' = ((x \vee y \vee z)' \vee xy'z) \vee ((x + 1)z \vee x(z+1))y \vee xyz' = x'y'z' \vee xy'z \vee xy'z' \vee ((xz+z) \vee (xz+x))y = (x' \vee x)y'z' \vee xy'z \vee ((xz+z)(xz+x) + (xz+z) + (xz+x))y = y'z' \vee xy'z \vee (xz + xz + xz + xz + z + x)y = y'(z' \vee xz) \vee (x + z)y = y'((z' \vee x)(z' \vee z)) \vee (xy + yz) + (x \vee z')y' \vee (xy + yz) = (xz' + x + z')y' \vee (xy + yz) = (xy'z' + xy' + y'z') \vee (xy + yz) = (xyz + xy + xz + x + xy + x + yz + y + z + 1) \vee (xy + yz) = (xyz + xz + yz + y + z + 1) \vee (xy + yz) = xyz + xz + yz + y + z + 1 + xy + yz = xyz + xyz + xyz + xy + xyz + xy + xyz + xzy + yz + yz + yz + yz + xyz + xz + y + z + 1 + xy = xyz + xy + xz + y + z + 1 - chiziqli emas.$

**3.4.14.** Chiziqli funksiyalar superpozisiyasidan hosil qilingan funksiya yana chiziqli bo'lishini isbotlang.

**3.4.15.** Quyidagilarni taqqoslang.

- |                                  |  |
|----------------------------------|--|
| 1) $(0, 1, 0), (1, 0, 0);$       | 7) $(0, 1, 0, 0), (0, 1, 0, 1);$       |
| 2) $(0, 1, 1, 0), (0, 1, 0, 1);$ | 8) $(1, 0, 0, 1, 0), (1, 0, 1, 1, 0);$ |
| 3) $(1, 0, 0, 1), (1, 0, 1, 1);$ | 9) $(0, 1, 0, 0, 1), (0, 1, 0, 1, 0);$ |
| 4) $(1, 1, 0), (1, 0, 0);$       | 10) $(1, 0, 1), (1, 0, 0);$            |
| 5) $(0, 1), (1, 0);$             | 11) $(0, 1, 1, 1), (0, 1, 0, 0).$      |
| 6) $(1, 0, 0), (1, 0, 1);$       |  |

**Yechim: 11)** Berilgan to'plamlarning birinchi elementlarini taqqoslasmiz:  $0=0$ .

Ikkinci elementlarni taqqoslasmiz :  $1=1$ . Uchinchisini  $1 \succ 0$  va nihoyat to'rtinchisi  $1 \succ 0$ . Shunday qilib, birinchi to'plamdag'i elementlar yoki teng, yoki katta bo'lganligi sabali  $(0, 1, 1, 1) \succ (0, 1, 0, 0)$ .

**3.4.16.** Bul funksiyalarining monotonligini isbotlang.


- 1)  $xyz \vee x'y'z \vee xyz'$ ;
- 2)  $xyz + xy + xz$ ;
- 3)  $xy \vee xz \vee yz$ ;
- 4)  $(x \vee y \vee z)(x \vee y' \vee z)(x \vee y \vee z')$ ;
- 5)  $xyz + x + yz$ ;
- 6)  $xyz \vee (xyz + xy)$ ;
- 7)  $(x \vee y \vee z)(x' \vee y \vee z)(x \vee y' \vee z)(x \vee y \vee z')(x' \vee y' \vee z)(x \vee y' \vee z')$ ;
- 8)  $x'y'z \vee xy'z' \vee x'yz \vee xyz$ ;
- 9)  $xyz \vee xz \vee yz$ ;
- 10)  $xy + (x + y)$ ;
- 11)  $(x \vee y \vee z)(x' \vee y \vee z)(x \vee y' \vee z)$ .

**Yechim:** 11) avval qiymatlar jadvalini tuzamiz:

$x$	$y$	$z$	$f(x,y,z)$
0	0	0	0
0	0	1	1
0	1	0	0
0	1	1	1
1	0	0	0
1	0	1	1
1	1	0	1
1	1	1	1

Endi har bir qiymatlar satrini va natijasini taqqoslaymiz:  
 $000 < 001$ ,  $000 < 101$ ,  
 $000 < 010$ ,  $000 < 110$ ,  $000 < 011$ ,  $000 < 100$ ,  $000 < 111$ ,  $001 < 011$ ,  $001 < 101$ ,  
 $001 < 111$ ,  $010 < 110$ ,  $010 < 111$ ,  $010 < 011$ ,  $011 < 111$ ,  $100 < 101$ ,  $100 < 110$ ,  
 $100 < 111$ ,  $101 < 111$ ,  $110 < 111$ ,  $011 < 111$ . Demak, berilgan funksiyamiz monoton funksiya.

Berilgan funksiyani taqqoslashning yana bir usuli diagrammada tasvirlash yordamida bajariladi. (chap tomonda o'zgaruvchilarning qiymatlari diagrammasi tasvirlangan bo'lsa, o'ng tomonda funksianing qabul qilgan qiymatlari diagrammasi tasvirlangan.) Ko'rinish turibdiki, o'zgaruvchilarning qiymatlari pastdan yuqoriga o'sib borayapti va xuddi shunday funksiya qabul qilgan qiymatlar ham pastdan yuqoriga o'sib boradi. Demak, berilgan funksiyamiz monoton funksiya.



**3.4.17.** Barcha uch o'zgaruvchili monoton funksiyalarni toping. Bunday funksiyalar sonini aniqlang.

**3.4.18.** To'rt o'zgaruvchili monoton funksiyaga misol keltiring.

**3.4.19.** Quyidagi bul funksiyalaridan qaysilari monoton bo'llishini aniqlang:

- 1)  $xyz$ ;
- 2)  $(x + y)z + (x + z)'$ ;
- 3)  $(x \vee y \vee z)(x' \vee y \vee z)(x \vee y \vee z')$ ;
- 4)  $xyz + xz$ ;
- 5)  $x'y'z' \vee x'yz' \vee zy'z' \vee xyz' \vee xyz$ ;
- 6)  $xy(z + 1) + z$ ;



- 7)  $x'yz' \vee xy'z \vee (x'y' + x' + y)$ ;
- 8)  $x'(y+z) \vee ((x' \vee y \vee z) \rightarrow xyz) \vee x((y \rightarrow z) + 1)$ ;
- 9)  $(x \vee y \vee z)(x' \vee y \vee z)(x \vee y' \vee z')(x' \vee y' \vee z)$ ;
- 10)  $xyz + xy + xz + yz + x + y + z$ ;
- 11)  $(x \vee y)(x' \vee y)z \vee x'yz \vee xy'z'$ .

**Yechim:** 11) avval qiymatlar jadvalini tuzamiz:

x	y	z	$F(x,y,z)$
0	0	0	0
0	0	1	1
0	1	0	0
0	1	1	1
1	0	0	1
1	0	1	0
1	1	0	0
1	1	1	1

Endi har bir qiymatlar satrini va natijasini taqqoslaymiz:  $000 < 001$ ,  $000 < 101$ ,  $001 < 101$ , ammo,  $f(001)=1, f(101)=0$  bundan  $f(001) > f(101)$ . Demak, berilgan funksiyamiz nomonoton funksiya.

Diagramma usulida tekshirib ko'ramiz. (chap tomonda o'zgaruvchilarning qiymatlari diagrammasi tasvirlangan bo'lsa, o'ng tomonda funksianing qabul qilgan qiymatlari diagrammasi tasvirlangan.) Ko'rinish turibdiki, o'zgaruvchilarning qiymatlari pastdan yuqoriga o'sib borayapti, ammo, funksiya qabul qilgan qiymatlar o'zgaruvchan. Bu esa funksiya ta'rifga kora nomonoton funksiya bo'lishini anglatadi.



- 3.4.20.** Asosiy elementar mantiqiy funksiyalardan monoton funksiyalarni toping.
- 3.4.21.** Asosiy elementar mantiqiy funksiyalardan nomonoton funksiyalarni toping.
- 3.4.22.** Monoton funkstiyalarning superpozistiyasidan hosil qilingan funksiya yana monoton funksiya bo'lishini isbotlang.
- 3.4.23.** Monoton funksianing ikkitaraflama funksiyasi ham monoton bo'lishini isbotlang.
- 3.4.24.** Keltirilgan tasdiq to'g'rimi? Kamida ikkita muhim argumentdan iborat bo'lgan chiziqli funksiya nomonoton funksiya bo'ladi.
- 3.4.25.** Bir vaqtda ham chiziqli ham monoton funksiyalar mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, bunday funksiyalarga misollar keltiring va ta'riflang.
- 3.4.26.** Barcha ikki o'zgaruvchili elementar funksiyalarni Jegalkin ko'phadi ko'rishida ifodalang.
- 3.4.27.** Quyidagi funksiyalarni aniqmas koeffisiyentlar usuli bilan Jegalkin ko'phadi ko'rishiga keltiring:
- 1)  $f(\tilde{x}^2) = (0100);$
  - 2)  $f(\tilde{x}^3) = (10001110);$
  - 3)  $f(\tilde{x}^3) = (01100110);$
  - 4)  $f(\tilde{x}^3) = (01101001);$
  - 5)  $f(\tilde{x}^3) = (00000111);$

- 3.4.28.** Jegalkin ko'phadi ko'rishiga keltiring:

- 1)  $f(\tilde{x}^2) = x_1 \rightarrow (x_2 \rightarrow \overline{x_1} \cdot x_2);$
- 2)  $f(\tilde{x}^2) = x_1 \cdot (x_2 \leftrightarrow x_1 \cdot \overline{x_2});$

- 3)  $f(\tilde{x}^3) = (x_1 \downarrow x_2) | (x_2 \downarrow x_3);$
- 4)  $f(\tilde{x}^3) = (x_1 \vee x_2) \cdot (x_1 | (x_3 \rightarrow x_2));$
- 5)  $f(\tilde{x}^3) = x_1 \downarrow ((x_1 \rightarrow x_2) \vee \overline{x_3});$
- 6)  $f(\tilde{x}^3) = (x_1 \rightarrow (x_2 \rightarrow x_3)) \cdot ((x_1 \rightarrow x_2) \rightarrow x_3);$
- 7)  $f(x, y, z) = x \vee \overline{y} \vee ((x \oplus (y \downarrow z)) \rightarrow \overline{y} \cdot z);$
- 8)  $f(x, y, z) = ((x \leftrightarrow y) \downarrow z) \cdot (y \cdot \overline{z} \rightarrow (x \oplus y \cdot z));$
- 9)  $f(x, y, z) = (x \vee y \cdot \overline{z}) \oplus (x \cdot \overline{y} \leftrightarrow (x \rightarrow y \cdot \overline{z}));$
- 10)  $f(x, y, z) = (x \vee y \vee \overline{z}) \rightarrow (x \cdot \overline{y} \leftrightarrow (x \oplus y \cdot \overline{z})).$

**3.4.29.**  $A$  va  $B$  bul funksiyalarini Jegalkin ko'phadi ko'rinishiga keltirib, ularning tengkuchliliginini isbotlang:

- 1)  $A = x_1 \rightarrow (x_2 \rightarrow x_3), B = (x_1 \rightarrow x_2) \rightarrow (x_1 \rightarrow x_3);$
- 2)  $A = (x_1 \cdot x_2 \rightarrow x_3) \rightarrow (x_1 \rightarrow x_3), B = \overline{x_1} \vee x_2 \vee \overline{x_3};$
- 3)  $A = x_1 \cdot x_2 \rightarrow x_3, B = (x_1 \rightarrow x_3)(x_2 \rightarrow x_3);$
- 4)  $A = x_1 \cdot x_2 \vee (x_3 \rightarrow x_1), B = \overline{x_1} \rightarrow \overline{x_3};$
- 5)  $A = (x_1 \rightarrow x_3)(x_2 \rightarrow x_3), B = (x_1 \vee x_2) \rightarrow x_3;$
- 6)  $A = x_1 \leftrightarrow x_2, B = (x_1 x_3 \leftrightarrow x_2 x_3)((x_1 \vee x_3) \leftrightarrow (x_2 \vee x_3));$

**3.4.30.** Quyidagi funksiyalar sistemasi funkstional yopiq sinflar bo'lishini isbot qiling:

- 1) bir argumentli funksiyalar;
- 2) hamma mantiq algebrasining funksiyalari;
- 3)  $L$  - chiziqli funksiyalar;
- 4)  $S$  - o'z-o'ziga ikkitaraflama funksiyalar;
- 5)  $M$  - monoton funksiyalar;
- 6)  $P_0$  - nul qiymatni saqllovchi funksiyalar;

7)  $P_1$  - bir qiymatni saqlovchi funksiyalar.

**3.4.31.** Agar  $\Phi = \{\varphi_1, \dots, \varphi_n\}$  va  $F = \{f_1, \dots, f_n\}$  funkstional yopiq sinflar bo'lsa, u holda  $\Phi \cap F$  va  $\Phi^* = \{\varphi_1^*, \dots, \varphi_n^*\}$  lar ham funkstional yopiq sinflar va  $\Phi \cup F$  ni funkstional yopiq sinf bo'lmasligini isbotlang.

**3.4.32.** Quyidagi maksimal funkstional yopiq  $P_0, P_1, S, L, M$  sinflarning birortasi ikkinchisining qism to'plami bo'lmasligini isbotlang.

**3.4.33.** Har qanday shaxsiy funkstional yopiq sinf  $P_0, P_1, S, L, M$  maksimal funkstional yopiq sinflarning birortasining qism to'plami ekanligini isbotlang.

**3.4.34.** Nol saqlamaydigan funksiya yoki nomonoton funksiya, yoki o'z-o'ziga ikkitaraflama bo'limgan funksiya ekanligini isbotlang.

**3.4.35.** Agar birtadan ortiq muhim argumentga ega bo'lgan bul funksiyasi chiziqli funksiya bo'lsa, u holda u nomonoton funksiya bo'ladimi?

**3.4.36.** Ham chiziqli ham monoton bul funksiyalari mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, bunday funksiyalarga misollar keltiring va tahlil qiling.

**3.4.37.** Agar birtadan ortiq muhim argumentga ega bo'lgan bul funksiyasi monoton bo'lsa, u holda u o'z-o'ziga ikki taraflama emasligi rostmi?

**3.4.38.** Ham o'z-o'ziga ikki taraflama ham monoton bul funksiyalari mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, bunday funksiyalarga misollar keltiring va tahlil qiling.

**3.4.39.**  $n$  argumentli barcha chiziqli funksiyalarda 0 ni saqlovchi funksiyalar va 1 ni saqlovchi funksiyalar soni o'zaro teng bo'lishini isbotlang.

**3.4.40.** Agar bul funksiyasi chiziqli va monoton bo'lsa, unda u yoki 0 ni saqlamaydi yoki 1 ni saqlamaydi yoki o'z-o'ziga ikki taraflama bo'lishini isbotlang.

**3.4.41.** Kamida ikkita muhim argumentga ega bo'lgan  $f(x_1, x_2, x_3, x_4)$  funksiyasi 0 ni saqlovchi, o'z-o'ziga ikkki taraflama, chiziqli va  $f(1,1,0,1)=1$  bo'lsa, bu funksiyani toping.

**3.4.42.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liqligini isbotlang:

- 1)  $\{\cdot, '\}$ ;    4)  $\{(\rightarrow)', '\}$ ;    7)  $\{| \}$ ;    10)  $\{\leftrightarrow, :, 0\}$ .  
 2)  $\{\vee, '\}$ ;    5)  $\{(\rightarrow)', 1\}$ ;    8)  $\{\downarrow\}$ ;  
 3)  $\{\rightarrow, '\}$ ;    6)  $\{\rightarrow, 0\}$ ;    9)  $\{+, :, 1\}$ ;

**Yechim:** 5) Agar mantiqiy amallarning barchasini  $\{(\rightarrow)', 1\}$  bilan ifodalab bo'lsa, yoki biror to'liq funksiyalar sistemasiga keltirib bo'lsa,  $\{(\rightarrow)', 1\}$  to'liq funksiyalar sistemasi bo'ladi.  $x' = (0 \vee x)' = (1 \rightarrow x)'$ ;  $x \vee y = (x'y')' = (1 \rightarrow (1 \rightarrow x)' \rightarrow y)'$ ;  $x \cdot y = x \cdot y'' = (x \rightarrow y')' = (x \rightarrow (1 \rightarrow y))'$ .  $\{\cdot, \vee, '\}$  funksiyalar sistemasi to'liqligidan,  $\{(\rightarrow)', 1\}$  ning to'liqligi kelib chiqadi.

**3.4.43.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liq emasligini isbotlang:

- 1)  $\{\cdot, \vee\}$ ;    4)  $\{+, '\}$ ;    7)  $\{+, \rightarrow\}$ ;    10)  $\{'\}$ ;  
 2)  $\{\cdot, \rightarrow\}$ ;    5)  $\{1, '\}$ ;    8)  $\{\cdot, \vee, \rightarrow\}$ ;    11)  $\{\leftrightarrow, '\}$ ;  
 3)  $\{\rightarrow, \vee\}$ ;    6)  $\{+, \vee\}$ ;    9)  $\{\cdot, \vee, \rightarrow, \leftrightarrow\}$ ;

**Yechim:** 1)  $\{\cdot, \vee\}$  funksiyalarning har biri 0 ni saqlaydi, yani  $0 \cdot 0 = 0$ ,  $0 \vee 0 = 0$ . Bundan, 0 ni saqlovchi funksiyalar superpozisiyasidan hosil bo'lgan funksiya yana 0 ni saqlaydi. Biz bilamizki, hamma bul funksiyalar ham 0 ni saqlovchi emas. Demak,  $\{\cdot, \vee\}$  funksiyalar sistemasi to'liq emas.

**3.4.44.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liqligini tekshiring:

- 1)  $\{\cdot, +\}$ ;    4)  $\{+, 1\}$ ;    7)  $\{\cdot, 0, 1\}$ ;    10)  $\{+, :, \leftrightarrow\}$ ;  
 2)  $\{\rightarrow, +\}$ ;    5)  $\{\cdot, +, 0\}$ ;    8)  $\{\leftrightarrow, \vee, 0\}$ ;    11)  $\{+, \vee, \leftrightarrow\}$ ;  
 3)  $\{\rightarrow, 1\}$ ;    6)  $\{+, 0, 1\}$ ;    9)  $\{\rightarrow, :, 0\}$ ;    12)  $\{\rightarrow, (\leftarrow)'\}$ ;

**3.4.45.** Quyidagi funksiyalar to'liq funksiyalar sistemasi bo'lishini isbotlang:

- 1)  $x'y'z'$ ;    7)  $(x+1)(y+1)(z+1)$ ;  
 2)  $(x+y+1)(z+1)$ ;    8)  $x'(y \rightarrow z')$ ;  
 3)  $x'y'z' \vee xy'z$ ;    9)  $z \leftrightarrow (y + xz)$ ;

- 4)  $xy \rightarrow z'$ ;      10)  $(1+x)(y'+z)'$ ;  
 5)  $xyz+1$ ;      11)  $x't' \vee yz'$ .  
 6)  $xy \rightarrow (x \rightarrow z')$ ;

**3.4.46.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to’liqligini tekshiring:

- 1)  $\{xy \vee y'z, 0, 1\}$ ;      7)  $\{(y \rightarrow x)(y' \rightarrow z), 0, 1\}$ ;  
 2)  $\{xy \vee xz \vee yz, x', 1\}$ ;      8)  $\{x + y + z, x'\}$ ;  
 3)  $\{xy \vee xz \vee yz, x \leftrightarrow y, x + y\}$ ;      9)  $\{xy \vee xz \vee yz, x'\}$ ;  
 4)  $\{y \rightarrow xz, 0, 1\}$ ;      10)  $\{xy \vee xz \vee yz, 0, 1\}$ ;  
 5)  $\{x + y + z, xy, x'\}$ ;      11)  $\{x + y, 0, 1\}$ ;  
 6)  $\{xy + z, (x \leftrightarrow y) + z, 1\}$ ;      12)  $\{xy, 0, 1\}$ ;

**Yechim:** 1)-7) sitemalar to’liq. 8) sistemadagi ikkala funksiya ham chiziqli ekanligi va chiziqli funksiyalar superpozitsiyasidan hosil bo’lgan funksiyalar ham chiziqli bo’lishini inobatga olib, sistema to’liq emas degan xulosaga kelamiz; 9) sistemadagi ikkala funksiya ham o’z-o’ziga ikki taraflama funksiya, sistema to’liq emas degan xulosaga kelamiz; 10) sistemadagi uchala funksiya ham monoton, sistema to’liq emas degan xulosaga kelamiz.

**3.4.47.** Agar  $F(f_1, f_2, \dots, f_n)$  funksiyalar sistemasi to’liq bo’lsa, u holda shu funksiyalar sisitemasiga ikki taraflama funksiya  $F^*(f_1^*, f_2^*, \dots, f_n^*)$  ham to’liq funksiyalar sistemasi bo’lishini isbotlang.

**3.4.48.** Quyida berilgan funksiyalar sinflaridan qaysi yopiq funksiyalar sinfi bo’lishini aniqlang:

- 1) bir argumentli funksiyalar; 2) ikki argumentli funksiyalar; 3) hamma mantiq algebrasining funksiyalari; 4) o’z-o’ziga ikkitaraflama funksiyalar; 5) monoton funksiyalar; 6) nol qiymatni saqlovchi funksiyalar; 7) nolni hamda birni saqlovchi funksiyalar; 8) bir qiymatni saqlovchi funksiyalar; 9) nol qiymatni saqlovchi ammo birni saqlamaydigan funksiyalar; 10) chiziqli funksiyalar.

**Yechim:** 9) nol qiymatni saqlovchi ammo birni saqlamaydigan funksiyalar funksional yopiq sinf bo'lish bo'lmasligini ko'rsatish uchun shunday misol keltirish kerakki, shartni qanoatlantiruvchi funksiya superpozisiyasidan hosil bo'lgan funksiya funksional yopiq sinf bo'lmasin:  $x + y = 0$  ni saqlaydi ammo 1 ni saqlamaydi. Endi uning superpozisiyasini ko'raylik :  $(x + y) + z = 0$  ni olsak, 0 ni saqlaydi va shu bilan birga 1 ni ham saqlaydi. Demak, funksional yopiq sinf emas ekan.

**3.4.49.**  $P_0, P_1, M, S, L$  funkstional yopiq sinflar maksimal funkstional yopiq sinflar bo'lishini isbotlang.

**3.4.50.**  $P_0, P_1, M, S, L$  sinflardan birortasi ham boshqasining tarkibiga kirmasligini isbotlang, ya'ni:

- 1)  $P_0 - P_1$  ning tarkibiga kirmaydi,  $P_1 - P_0$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 2)  $P_0 - S$  ning tarkibiga kirmaydi,  $S - P_0$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 3)  $P_0 - L$  ning tarkibiga kirmaydi,  $L - P_0$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 4)  $P_0 - M$  ning tarkibiga kirmaydi,  $M - P_0$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 5)  $P_1 - S$  ning tarkibiga kirmaydi,  $S - P_1$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 6)  $P_1 - L$  ning tarkibiga kirmaydi,  $L - P_1$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 7)  $P_1 - M$  ning tarkibiga kirmaydi,  $M - P_1$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 8)  $S - M$  ning tarkibiga kirmaydi,  $M - S$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 9)  $S - L$  ning tarkibiga kirmaydi,  $L - S$  ning tarkibiga kirmaydi;
- 10)  $L - M$  ning tarkibiga kirmaydi,  $M - L$  ning tarkibiga kirmaydi.

**Izoh:** Har bir hol uchun shunday ikkita funksiya topish kerakki, bir funksiya birinchi sinfga tegishli bo'lib, ikkinchi sinfga tegishli bo'lmasin. Keyingi funksiya aksincha, ikkinchi sinfga tegishli bo'lib, birinchi sinfga tegishli bo'lmasin.

**3.4.51.**  $P_0, P_1, M, S, L$  sinflardan boshqa maksimal funkstional yopiq sinflar bo'lmasligini isbotlang.

### 3.5. Post teoremasi.

**Post teoremasi.**  $\Phi = \{\varphi_1, \dots, \varphi_n\}$  funksiyalar sistemasining to’liqligi uchun bu sistemada  $P_0, P_1, M, S, L$  maksimal funkstional yopiq sinflarning har biriga kirmovchi kamida bitta funksiya mavjud bo’lishi etarli va zarur

Amalda birorta  $\Phi = \{\varphi_1, \dots, \varphi_n\}$  sistemaning to’liq yoki to’liq emasligini aniqlash uchun Post jadvalidan foydalanadilar. Post jadvali quyidagi ko’rinishda bo’ladi:

	$P_0$	$P_1$	$S$	$L$	$M$
$\varphi_1$					
$\varphi_2$					
...	...	...	...	...	...
$\varphi_{n-1}$					
$\varphi_n$					

Jadvalning xonalariga o’sha satrdagi funksiya funkstional yopiq sinflarning elementi bo’lsa “+” ishora, bo’lmasa “-” ishorasi qo’yiladi.

$\Phi = \{\varphi_1, \dots, \varphi_n\}$  sistema to’liq funksiyalar sistemasi bo’lishi uchun, teoremagaga asosan, jadvalning har bir ustunida kamida bitta “-” ishorasi bo’lishi etarli va zarur.

$\Phi = \{\varphi_1, \dots, \varphi_n\}$  funksiyalar sistemasi to’liq bo’lmasligi uchun  $P_0, P_1, M, S, L$  maksimal funkstional yopiq sinflarning birortasining qism to’plami bo’lishi, ya’ni Post jadvalining biror ustuni to’liq “+” ishoralaridan iborat bo’lishi kerak.

**Misol.** Quyidagi funksiyalar sistemalarining to’liq emasligini Post jadvali orqali isbot qilaylik:

- a)  $\Phi_1 = \{0, xy, x + y + z\};$  b)  $\Phi_2 = \{1, xy, x + y + z\};$
- v)  $\Phi_3 = \{ \overline{x}\overline{y} \vee \overline{x}\overline{z} \vee \overline{y}\overline{z} \};$  g)  $\Phi_4 = \{0, 1, x + y\};$
- d)  $\Phi_5 = \{0, 1, xy\}$

a)		$P_0$	$P_1$	$S$	$L$	$M$
	0	+	-	-	+	+
	$xy$	+	+	-	-	+
	$x + y + z$	+	+	+	+	-
b)	1	-	+	-	+	+
	$xy$	+	+	-	-	+
	$x + y + z$	+	+	+	+	-
v)	$\overline{\overline{xy}} \vee \overline{\overline{xz}} \vee \overline{\overline{yz}}$	-	-	+	-	-
g)	0	+	-	-	+	+
	1	-	+	-	+	+
	$x + y$	+	-	-	+	-
d)	0	+	-	-	+	+
	1	-	+	-	+	+
	$xy$	+	+	-	-	+

### Muammoli masala va topshiriqlar:

**3.5.1.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liq emasligini Post teoremasi yordamida isbotlang:

- 1)  $\{\cdot, \vee\}$ ;
- 2)  $\{\cdot, \rightarrow\}$ ;
- 3)  $\{\rightarrow, \vee\}$ ;
- 4)  $\{+, '\}$ ;
- 5)  $\{1, '\}$ ;
- 6)  $\{+, \vee\}$ ;
- 7)  $\{+, \rightarrow\}$ ;
- 8)  $\{\cdot, \vee, \rightarrow\}$ ;
- 9)  $\{\cdot, \vee, \rightarrow, \leftrightarrow\}$ ;
- 10)  $\{'\}$ ;
- 11)  $\{\leftrightarrow, '\}$ ;

**3.5.2.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liqligini Post teoremasi yordamida tekshiring:

- |                          |                       |                                    |                                       |
|--------------------------|-----------------------|------------------------------------|---------------------------------------|
| 1) $\{\cdot, +\};$       | 4) $\{+, 1\};$        | 7) $\{\cdot, 0, 1\};$              | 10) $\{+, \cdot, \leftrightarrow\};$  |
| 2) $\{\rightarrow, +\};$ | 5) $\{\cdot, +, 0\};$ | 8) $\{\leftrightarrow, \vee, 0\};$ | 11) $\{+, \vee, \leftrightarrow\};$   |
| 3) $\{\rightarrow, 1\};$ | 6) $\{+, 0, 1\};$     | 9) $\{\rightarrow, \cdot, 0\};$    | 12) $\{\rightarrow, (\leftarrow)'\};$ |

**3.5.3.** Quyidagi funksiyalar to'liq funksiyalar sistemasi bo'lishini Post jadvali yordamida isbotlang:

- |   |                                |
|---|--------------------------------|
| 1) $x'y'z';$                            | 7) $(x+1)(y+1)(z+1);$          |
| 2) $(x+y+1)(z+1);$                      | 8) $x'(y \rightarrow z');$     |
| 3) $x'y'z' \vee xy'z;$                  | 9) $z \leftrightarrow (y+xz);$ |
| 4) $xy \rightarrow z';$                 | 10) $(1+x)(y'+z)';$            |
| 5) $xyz+1;$                             | 11) $x't' \vee yz'.$           |
| 6) $xy \rightarrow (x \rightarrow z');$ |                                |

**3.5.4.** Quyidagi funksiyalar sistemasining to'liqligini Post jadvali yordamida tekshiring :

- |  |   |
|--|---|
| 1) $\{xy \vee y'z, 0, 1\};$                              | 7) $\{(y \rightarrow x)(y' \rightarrow z), 0, 1\};$ |
| 2) $\{xy \vee xz \vee yz, x', 1\};$                      | 8) $\{x + y + z, x'\};$                             |
| 3) $\{xy \vee xz \vee yz, x \leftrightarrow y, x + y\};$ | 9) $\{xy \vee xz \vee yz, x'\};$                    |
| 4) $\{y \rightarrow xz, 0, 1\};$                         | 10) $\{xy \vee xz \vee yz, 0, 1\};$                 |
| 5) $\{x + y + z, xy, x'\};$                              | 11) $\{x + y, 0, 1\};$                              |
| 6) $\{xy + z, (x \leftrightarrow y) + z, 1\};$           | 12) $\{xy, 0, 1\};$                                 |

## **4-BOB. MULOHAZALAR HISOBI**

### **4.1. Hisob tushunchasi. Mulohazalar hisobi. Keltirib chiqarish. Isbot tushunchasi. Teorema tushunchasi. Mulohazalar hisobining aksiomalari.**

Mulohazalar hisobida uch kategoriyali simvollardan iborat alfavit qabul qilinadi:

**Birinchi kategoriya simvollari:**  $x, y, z, \dots, x_1, x_2, \dots$ . Bu simvollarni o'zgaruvchilar deb ataymiz.

**Ikkinci kategoriya simvollari:**  $\vee, \wedge, \rightarrow, -$ . Bular mantiqiy bog'lovchilardir.

**Uchinchi kategoriyaga** qavs deb ataladigan ( , ) simvol kiritiladi.

Mulohazalar hisobida boshqa simvollar yo'q.

Mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi XI aksiomadan iborat bo'lib, bular to'rt guruhga bo'linadi.

**Birinchi guruh aksiomalari:**

$$I_1 \quad x \rightarrow (y \rightarrow x).$$

$$I_2 \quad (x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z)).$$

**Ikkinci guruh aksiomalari:**

$$II_1 \quad x \wedge y \rightarrow x.$$

$$II_2 \quad x \wedge y \rightarrow y.$$

$$II_3 \quad (z \rightarrow x) \rightarrow ((z \rightarrow y) \rightarrow (z \rightarrow x \wedge y)).$$

**Uchinchi guruh aksiomalari:**

$$III_1 \quad x \rightarrow x \vee y.$$

$$III_2 \quad y \rightarrow x \vee y.$$

$$III_3 \quad (x \rightarrow z) \rightarrow ((y \rightarrow z) \rightarrow (x \vee y \rightarrow z)).$$

**To'rtinchi guruh aksiomalari:**

$$IV_1 \quad (x \rightarrow y) \rightarrow (\bar{y} \rightarrow \bar{x}).$$

$$\text{IV}_2 \quad x \rightarrow \overline{x}.$$

$$\text{IV}_3 \quad \overline{x} \rightarrow x.$$

### Keltirib chiqarish qoidasi

**O'rniga qo'yish qoidasi.** A formuladagi  $x$  o'zgaruvchilar o'rniga  $B$  formulani qo'yish operastiyasi (jarayoni)ni o'rniga qo'yish qoidasi deb aytamiz va uni

quyidagi simvol bilan belgilaymiz:  $\int_x^B(A)$ ,  $\frac{|-A}{\int_{x_1, x_2, \dots, x_n}^{B_1, B_2, \dots, B_n}(A)}$ .

$\frac{|-A}{\int_x^B(A)}$  «agar  $A$  isbotlanuvchi formula bo'lsa, u vaqtida  $\int_x^B(A)$  ham

isbotlanuvchi formula bo'ladi» deb o'qiladi.

**Xulosa qoidasi (modus ponens-MP).** Agar  $A$  va  $A \rightarrow B$  lar mulohazalar hisobining isbotlanuvchi formulalari bo'lsa, u holda V ham isbotlanuvchi formula

bo'ladi. Bu qoida quyidagicha sxematik ravishda yoziladi:  $\frac{|-A; |-A \rightarrow B}{|-B}$ .

$A_1, A_2, \dots, A_n$  lar va  $A_1 \rightarrow (A_2 \rightarrow (A_3 \rightarrow (\dots (A_n \rightarrow L) \dots)))$  isbotlanuvchi formulalar bo'lsa, u vaqtida L ham isbotlanuvchi formula bo'ladi.

$$\frac{|-A_1, |-A_2, \dots, |-A_n, |-A_1 \rightarrow (A_2 \rightarrow (A_3 \rightarrow (\dots (A_n \rightarrow L) \dots)))}{|-L}$$

**Isbotlanuvchi formulalarni** hosil etish jarayoniga isbotlash deb aytildi.

**1-Misol.**  $|-A \rightarrow A$  implikastiyaning refleksivligini isbotlash uchun ushbu  $|-(x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z))$  - I<sub>2</sub> aksiomadan foydalanamiz. Bu erda

$$\int_z^x(I_2) \quad \text{o'rniga} \quad \text{qo'yishni} \quad \text{bajarish} \quad \text{natijasida}$$

$$|-(x \rightarrow (y \rightarrow x)) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow x)) \quad (1)$$

kelib chiqadi.  $\neg(x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z))$  - I<sub>2</sub> aksioma va (1) formulaga xulosa qoidasini qo'llab  $\neg(x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow x)$  (2) formulani hosil qilamiz. (2) formulaga nisbatan quyidagi o'rniga qo'yishni  $\int_y^x$  (2)bajarish

natijasida  $\neg(x \rightarrow x) \rightarrow (x \rightarrow x)$  (3) isbotlanuvchi formulaga ega bo'lamiz.

$x \rightarrow \bar{x}$  - IV<sub>2</sub> aksioma va (3) formulaga nisbatan xulosa qoidasini qo'llash natijasida  $\neg x \rightarrow x$  (4) isbotlanuvchi formulaga kelamiz. Nihoyat (4) formuladagi  $x$  o'zgaruvchi o'rniga  $A$  formulani qo'ysak  $\neg A \rightarrow A$  isbotlanishi kerak bo'lgan formula hosil bo'ladi.

**2-misol.**  $\neg(\overline{x \vee y} \rightarrow \bar{x} \wedge \bar{y})$  ekanligini isbotlang.

$(z \rightarrow x) \rightarrow ((z \rightarrow y) \rightarrow (z \rightarrow x \wedge y))$  - II<sub>3</sub> aksiomaga nis-batan ketma-ket ikki marta o'rniga qo'yish usulini qo'llaymiz: avval  $x$  ni  $\bar{x}$  ga va keyin  $y$  ni  $\bar{y}$  ga almashtiramiz. Natijada quyidagi isbotlanuvchi formulaga ega bo'lamiz

$\neg(z \rightarrow \bar{x}) \rightarrow ((z \rightarrow \bar{y}) \rightarrow (z \rightarrow \bar{x} \wedge \bar{y})).$  (5)  $\int_z^{\overline{x \vee y}}$  (5) o'rniga qo'yishni bajarib,

quyidagini hosil qilamiz  $\neg((\overline{x \vee y} \rightarrow \bar{x}) \rightarrow ((\overline{x \vee y} \rightarrow \bar{y}) \rightarrow (\overline{x \vee y} \rightarrow \bar{x} \wedge \bar{y})))$ .

(5a). Endi  $\overline{x \vee y} \rightarrow \bar{x}$  (6),  $\overline{x \vee y} \rightarrow \bar{y}$  (7) formulalarning isbotlanuvchi ekanligini ko'rsatamiz. Buning uchun  $(x \rightarrow y) \rightarrow (\bar{y} \rightarrow \bar{x})$  - IV<sub>1</sub> aksiomaga

nisbatan  $\int_y^{x \vee y} (IV_1)$  o'rniga qo'yishni bajaramiz.

Natijada  $\neg(x \rightarrow x \vee y) \rightarrow (\overline{x \vee y} \rightarrow \bar{x})$  (8) formulaga ega bo'lamiz. (8) formula va  $x \rightarrow x \vee y$  - III<sub>1</sub> aksiomaga nisbatan xulosa qoidasini ishlatib, (6) ning

isbotlanuvchi formula ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Xuddi shunday (7) ning ham isbotlanuvchi formula ekanligini ko'rsatish mumkin.

(6) va (5) formulalarga xulosa qoidasini qo'llasak,  
 $\neg(\overline{x \vee y} \rightarrow \overline{y}) \rightarrow (\overline{x \vee y} \rightarrow \overline{x} \wedge \overline{y})$  (9) isbotlanuvchi formula kelib chiqadi.

(7) va (9) formulalarga xulosa qoidasini qo'llab,  $\neg \overline{x \vee y} \rightarrow \overline{x} \wedge \overline{y}$   
dastlabki formulaning isbotlanuvchi ekanligini hosil qilamiz.

$$\frac{|-\overline{A_1}, |-\overline{A_2}, \dots, |-\overline{A_n}, |\neg A_1 \rightarrow (A_2 \rightarrow (A_3 \rightarrow (\dots (A_n \rightarrow L) \dots))))}{|\neg L}$$

**Sillogizm qoidasi:** Agar  $A \rightarrow B$  va  $B \rightarrow C$  isbotlanuvchi formulalar bo'lsa,

$$u \text{ vaqtida } A \rightarrow C \text{ formula ham isbotlanuvchi bo'ladi.} \quad \frac{|\neg A \rightarrow B, |\neg B \rightarrow C}{|\neg A \rightarrow C}.$$

**Kontrpozistiya qoidasi:** Agar  $A \rightarrow B$  isbotlanuvchi formula bo'lsa, u vaqtida  $\overline{B} \rightarrow \overline{A}$  ham isbotlanuvchi formula, ya'ni  $\frac{|\neg A \rightarrow B}{|\neg \overline{B} \rightarrow \overline{A}}$  bo'ladi.

### Ikki karralik inkorni tushirish qoidasi

- 1) Agar  $A \rightarrow \overline{\overline{B}}$  isbotlanuvchi formula bo'lsa, u vaqtida  $A \rightarrow B$  ham isbotlanuvchi bo'ladi.  $\frac{|\neg A \rightarrow \overline{\overline{B}}}{|\neg A \rightarrow B}$
- 2) Agar  $\overline{\overline{A}} \rightarrow B$  isbotlanuvchi formula bo'lsa, u vaqtida  $A \rightarrow B$  formula ham isbotlanuvchi, ya'ni  $\frac{|\neg A \rightarrow \overline{\overline{B}}}{|\neg A \rightarrow B}$  bo'ladi.

### Muammoli masala va topshiriqlar:

**4.4.1.** Quyidagi ifodalarning qaysi birlari mulohazalar hisobining formulalari bo'ladi:

- 1)  $(\overline{p}_1 \wedge \overline{p}_2) \rightarrow (p_1 \vee p_2);$

- 2)  $((p_1 \vee p_2) \vee (p_1 p_2)) \rightarrow \overline{p}_3;$   
 3)  $(p_1 \rightarrow (p_2 \vee p_3)) \rightarrow p_3;$   
 4)  $(p_1 \rightarrow p_2) \rightarrow ((p_1 \rightarrow \overline{p}_2) \rightarrow p_1);$   
 5)  $(p_1 \wedge (\rightarrow p_2)) \rightarrow (p_2 \rightarrow \overline{p}_1);$   
 6)  $(p_1 \rightarrow p_3) \rightarrow ((p_2 \rightarrow p_3) \rightarrow ((p_1 \vee p_2) \rightarrow p_3));$   
 7)  $((p_1 \rightarrow p_2) \wedge (p_1 \rightarrow p_3)) \rightarrow (p_1 \rightarrow (p_2 \wedge p_3));$   
 8)  $((p_1 \wedge \overline{p}_2) \rightarrow (\overline{\overline{p}_1} \vee \vee p_2)) \leftrightarrow (\vee p_1 \vee p_2).$

**4.1.2.** Quyidagi formulalarning hamma qism formulalarini yozib chiqing:

$$A = \overline{x \rightarrow y} \wedge (\overline{x} \vee y), \quad B = (x \leftrightarrow y) \vee (\overline{xy}),$$

$$C = (x \leftrightarrow y) \rightarrow (\overline{y} \rightarrow t), \quad D = xy \vee xz \vee yz.$$

- 1)  $x \rightarrow (y \rightarrow x);$       2)  $\overline{a \vee b} \rightarrow c;$   
 3)  $a \wedge \overline{c \vee b};$       4)  $x \rightarrow y \wedge z;$   
 5)  $x \vee yz \rightarrow x;$       6)  $\overline{x \rightarrow y} \vee x \wedge y;$   
 7)  $((x \rightarrow x) \wedge (y \rightarrow z)) \rightarrow (\overline{x} \vee z);$   
 8)  $(x \rightarrow y) \rightarrow ((x \rightarrow \overline{y}) \rightarrow \overline{y}).$

**Yechim:** 8)  $(x \rightarrow y) \rightarrow ((x \rightarrow \overline{y}) \rightarrow \overline{y}).$

$(x \rightarrow y) \rightarrow ((x \rightarrow \overline{y}) \rightarrow \overline{y})$  - nolinchi chuqurlikdagi qismiy formula;

$x \rightarrow y, (x \rightarrow \overline{y}) \rightarrow \overline{y}$  - birinchi chuqurlikdagi qismiy formula;

$x, y, x \rightarrow \overline{y}, \overline{y}$  - ikkinchi chuqurlikdagi qismiy formula.

**4.1.3.**  $L_1 = (A \rightarrow B) \rightarrow (\overline{B} \vee \overline{A}), L_2 = A \vee (A \rightarrow B), L_3 = A \vee (B \rightarrow C)$

formulalar uchun quyidagi o'rniga qo'yishlarning natijalarini yozing:

$$1) \int_{A,B}^{B,C} (L_1); \quad 2) \int_A^{A \rightarrow B} (L_2); \quad 3) \int_{A,C}^{B \rightarrow A \wedge B, B} (L_3);$$

$$4) \int_{A,B}^{A \wedge B, A \vee B} (L_1); \quad 5) \int_{A,B}^{B,A} (L_2); \quad 6) \int_{A,B,C}^{A \wedge \bar{A}, C, \bar{A}} (L_3).$$

**4.1.4.** O'rniga qo'yish qoidasini qo'llab, quyidagi formulalarning isbotlanuvchi ekanligini isbotlang:

- 1)  $(A \rightarrow B) \wedge B \rightarrow B;$
- 2)  $A \wedge B \rightarrow A \wedge B \vee C;$
- 3)  $(\bar{A} \rightarrow B) \rightarrow ((C \rightarrow B) \rightarrow (\bar{A} \vee C \rightarrow B));$
- 4)  $\overline{\overline{C \vee D}} \rightarrow C \vee D;$
- 5)  $(A \wedge B \rightarrow (C \rightarrow B \wedge C)) \rightarrow ((A \wedge B \rightarrow C) \rightarrow (A \wedge B \rightarrow B \wedge C)).$

**4.1.5.** Quyidagi formulalardan qaysilari aksioma bo'lishini aniqlang:

- 1)  $(F \rightarrow ((F \rightarrow F) \rightarrow F)) \rightarrow ((F \rightarrow (F \rightarrow F)) \rightarrow (F \rightarrow F));$
- 2)  $F \rightarrow ((\neg F \rightarrow G) \rightarrow F);$
- 3)  $(G \rightarrow H) \rightarrow (F \rightarrow (G \rightarrow H));$
- 4)  $(\neg F \rightarrow G) \rightarrow (\neg G \rightarrow \neg \neg F);$
- 5)  $(\neg F \rightarrow \neg \neg G) \rightarrow ((\neg F \rightarrow \neg G) \rightarrow F);$
- 6)  $\neg F \rightarrow (F \rightarrow \neg F);$
- 7)  $(G \rightarrow F) \rightarrow ((G \rightarrow \neg F) \rightarrow G);$
- 8)  $(\neg G \rightarrow \neg \neg F) \rightarrow ((\neg G \rightarrow \neg F));$
- 9)  $(F \rightarrow G) \rightarrow (H \rightarrow (G \rightarrow F));$
- 10)  $(G \rightarrow (\neg F \rightarrow F)) \rightarrow ((G \rightarrow \neg F) \rightarrow (G \rightarrow F));$
- 11)  $((\neg F \rightarrow G) \rightarrow (F \rightarrow G)) \rightarrow (\neg F \rightarrow G);$
- 12)  $(\neg \neg F \rightarrow \neg F) \rightarrow ((\neg \neg F \rightarrow F) \rightarrow \neg \neg F);$
- 13)  $(F \rightarrow ((H \rightarrow F) \rightarrow (G \rightarrow (H \rightarrow F)))) \rightarrow ((F \rightarrow (H \rightarrow F) \rightarrow (F \rightarrow (G \rightarrow (H \rightarrow F)))));$

**Yechim:** 1)  $I_2 = (x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z))$  aksioma va o'rniga qo'yish usuli yordamida isbotlanuvchi yoki aksioma ekanligini ko'rstaniz:

$$\int_{x, y, z}^{F, F \rightarrow F, F} (I_2) = (F \rightarrow ((F \rightarrow F) \rightarrow F)) \rightarrow ((F \rightarrow (F \rightarrow F)) \rightarrow (F \rightarrow F)).$$

2)  $I_1 = x \rightarrow (y \rightarrow x)$  aksioma va o'rniga qo'yish usuli yordamida isbotlanuvchi yoki aksioma ekanligini ko'rstaniz:

$$\int_{x, y}^{F, \neg F \rightarrow G} (I_1) = F \rightarrow ((\neg F \rightarrow G) \rightarrow F).$$

**4.1.6.** O'rniga qo'yish va xulosa qodalarini qo'llab, quyidagi formulalarning isbotlanuvchi ekanligini aniqlang:

- 1)  $A \vee A \rightarrow A ;$
- 2)  $A \rightarrow A \wedge A ;$
- 3)  $A \wedge B \rightarrow B \wedge A ;$
- 4)  $A \vee B \rightarrow B \vee A ;$
- 5)  $(A \rightarrow B) \rightarrow (A \rightarrow A);$
- 6)  $\overline{A} \rightarrow \overline{\overline{A}} .$

**4.1.7.** Keltirib chiqarishning hosilaviy qoidalaridan foydalanib, quyidagi formulalarning isbotlanuvchi ekanligini isbotlang:

- 1)  $\overline{A} \vee \overline{B} \rightarrow \overline{A \wedge B} ;$
- 2)  $A \rightarrow R ;$
- 3)  $(A \rightarrow B) \rightarrow (A \rightarrow A \vee B);$
- 4)  $F \rightarrow A ;$
- 5)  $(A \rightarrow B) \rightarrow (A \rightarrow A);$
- 6)  $A \wedge \overline{A} \rightarrow F ;$
- 7)  $(A \rightarrow B) \wedge \overline{B} \rightarrow \overline{A};$
- 8)  $\overline{A} \wedge \overline{B} \rightarrow \overline{A \vee B} .$

**4.1.8.** Keltirib chiqarishning hosilaviy qoidalarini isbotlang:

- 1)  $\frac{|-\overline{A}}{|-\overline{A} \wedge B} ;$
- 2)  $\frac{|-\overline{A}}{|-\overline{A} \vee B} ;$
- 3)  $\frac{|-\overline{A}}{|-\overline{A} \rightarrow B} ;$
- 4)  $\frac{|-\overline{B}}{A \rightarrow B} ;$
- 5)  $\frac{|-\overline{A} \wedge B}{|-\overline{A}} ;$
- 6)  $\frac{|-\overline{B}}{|-\overline{A} \wedge B} ;$

$$7) \frac{|-\bar{A} \rightarrow B, |-\bar{B}}{|-\bar{A}}; \quad 8) \frac{|-\bar{A}, |-\bar{B}}{|-\bar{A} \wedge B}; \quad 9) \frac{|-\bar{A}, |-\bar{B}}{|-\bar{A} \vee B};$$

$$10) \frac{|-\bar{A}, |-\bar{B}}{|-\bar{A} \rightarrow B}; \quad 11) \frac{|-\bar{A} \rightarrow \bar{A}}{|-\bar{A}}; \quad 12) \frac{|-\bar{A} \rightarrow A}{|-\bar{A}};$$

$$13) \frac{|-\bar{A} \rightarrow B, |-\bar{A} \rightarrow B}{|-\bar{B}}; \quad 14) \frac{|-\bar{A} \rightarrow B, |-\bar{A} \rightarrow \bar{B}}{|-\bar{A}}.$$

**4.1.9.** O'rniga qo'yish qoidasidan foydalanib quyidagi formulalarning chiqariluvchi ekanligini isbotlang:

- 1)  $\vdash (A \rightarrow B) \rightarrow ((A \rightarrow B) \vee (B \& C));$
- 2)  $\vdash ((A \& B) \rightarrow (C \& D)) \rightarrow ((\overline{C \& D}) \rightarrow | (A \& B));$
- 3)  $\vdash (C \rightarrow A \vee B) \rightarrow ((C \rightarrow B \vee A) \rightarrow (C \rightarrow (A \vee B) \& (B \vee A)));$
